



YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO‘LIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI

O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 162 (1761), 2026-yil 12-avgust, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



NEFT-GAZ BOZORI BARQARORLIGINI TA’MINLASH MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 11-avgust kuni neft-gaz bozorida barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga uglevodorod resurslarini uzluksiz yetkazib berish chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda sanoat quvvatlari kengayib, aholi ehtiyojlari ortib borayotgani tabiiy gaz va neft mahsulotlariga talabni oshirmoqda. Bunday sharoitda ichki bozorni zarur resurslar bilan barqaror ta’minlash, mavsumiy ehtiyojlarni oldindan hisobga olish va narxlarning asossiz o’sishiga yo‘l qo‘ymaslik muhim ahamiyatga ega.

Taqdimotda neft va gaz qazib chiqarish, import qilish, qayta ishlash, zaxiralash hamda iste’molchilarga yetkazib berish holati ko‘rib chiqildi. Tarmoqlar va hududlar ehtiyojini aniq hisob-kitob qilish, ichki talabni ustuvor ta’minlash va yetkazib berish grafiklariga qat’iy rioya etish zarurligi ta’kidlandi.

“O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyatida tabiiy gaz qazib chiqarish sur’atlarini barqaror saqlash, mavjud konlar imkoniyatidan samarali foydalanish va yangi quduqlarni o‘z vaqtida ishga tushirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilindi.

Avgust oyida 27 ta quduqni ishga tushirish rejalashtirilgan. “Yangi Kultak”, “Niyoz”, “Qoratau”, “Marvarid” va “Tegirmon” konlaridagi ishlar hisobiga qo‘shimcha 887 ming kub metr tabiiy gaz qazib chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Quduqlarni burg‘ilashdan tortib, ulami gaz uzatish tarmog‘iga ulashgacha bo‘lgan jarayonlarni kunlik nazoratga olish, elektr ta’minoti va ishlash chiqarish infratuzilmasining uzluksiz ishlashini ta’minlash muhimligi ta’kidlandi.

Neft va gazni qayta ishlash korxonalarini xomashyo bilan bir maromda ta’minlash, mavjud

quvvatlardan samarali foydalanish hamda ichki bozorda talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Uglevodorod resurslarini hududlarga o‘z vaqtida va yetarli hajmda yetkazib berish, zarur zaxiralarni oldindan shakllantirish hamda ishlab chiqaruvchi, tashuvchi va sotuvchi korxonalar faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Narxlar barqarorligini saqlash uchun bozorda yetarli taklifni ta’minlash, mahsulotlarni birja savdolariga talabdan kelib chiqib chiqarish, ishlab chiqarish va logistika xarajatlarini qisqartirish muhimligi ta’kidlandi. Resurslarni asossiz ushlab turish, sun’iy taqchillikni yuzaga keltirish va narxlarni oshirishga qaratilgan holatlarning oldini olish bo‘yicha ta’sirchan nazorat o‘rnatish topshirildi.

Ichki bozorda talab va taklif muvozanatini saqlash, uglevodorod resurslari ta’minotida uzilishlarga hamda narxlarning asossiz o’sishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyatiga neft va gaz qazib chiqarish bo‘yicha belgilangan prognoz ko‘rsatkichlarini so‘zsiz ta’minlash vazifasi qo‘yildi. Suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmini yil yakuniga qadar rejadagi 520 ming tonna o‘miga 606 ming tonnaga yetkazish topshirildi.

Mutasaddilarga ichki bozor ehtiyojini kunlik tahlil qilib borish, ta’minot bilan bog‘liq xavflarni oldindan aniqlash va zarur choralarni o‘z vaqtida ko‘rish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

O‘ZA

MUSTAQILLIK VA KONSTITUTSIYA: ADOLAT VA TARAQQIYOT YO‘LI

Dunyo tamadduni insoniyatning ming yillar davomida shakllangan madaniy, ilmiy, ijtimoiy va texnologik taraqqiyotining yaxlit majmuasidir. Unda har bir xalqning irodasi bilan ro‘yobga chiqadigan erkin yashash, o‘z taqdirini o‘zi belgilash va milliy taraqqiyot yo‘lini mustaqil tanlash maqsadi aks etgan.



Ayni paytda ushbu mezon doirasida har bir xalq tarixida milliy g‘urur va iftixor bilan eslanadigan unutilmas va buyuk sanalar bo‘ladi. Bu yil xalqimiz 1991-yildagi tarixiy voqea — O‘zbekiston mustaqilligi e’lon qilinganining 35 yillik shonli sanasini nishonlash baxtiga muvassar bo‘lib turibdi. Bu davr fuqarolarimiz uchun o‘z taqdirini o‘zi belgilash, milliy davlatchilikni tiklash va jahon hamjamiyatida teng huquqli subyekt sifatida o‘z o‘mini topish borasidagi murakkab, ammo sharafli zafarnoma yo‘li bo‘ldi.

Prezidentimizning 2026-yil 1-aprel-dagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori ushbu qutlug‘ sanani yangi O‘zbekistonning bugungi ulkan salohiyati va jahon maydonidagi nufuziga mos yuksak darajada nishonlashni ta’minlaydi.

Zero, mustaqillik xalqimizning matonati, ajdodlar orzusi va yangi O‘zbekistonni barpo etishdagi ezgu sa’y-harakatlarimizning mustahkam asosidir.

Qarorda belgilangan “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan bosh g‘oya umummilliy birdamlik, bunyodkorlik va kelajak uchun mustahkam mas’uliyat timsoli sifatida mustaqillik bayramini yanada ko‘tarinki ruhda, hamjihatlik va katta taraddud bilan qarshi olishga o‘ziga xos da’vat bo‘ldi desak, mubolag‘a emas.

O‘zbekiston xalqi uchun istiqbol nafaqat davlat suverenitetining e’tirofi, balki milliy davlatchilik an’analarni qayta tiklash, xalqning asriy orzu-intilishlarini ro‘yobga chiqarish va inson qadriini yuksaltirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar davrining boshlanishi bo‘ldi.

Tarixiy tafakkur shuni ko‘rsatadiki, har qanday mustaqil davlatning barqaror

taraqqiyoti, avvalo, mustahkam konstitutsiyaviy poydevorga tayanadi. Davlat mustaqilligi xalqning siyosiy irodasini ifoda etsa, Konstitutsiya ana shu irodani huquqiy jihatdan mustahkamlaydigan, davlat va jamiyat hayotining asosiy qoidalarini belgilaydigan Bosh qonun sifatida maydonga chiqadi. Shu ma’noda, mustaqillik va Konstitutsiya bir-birini to‘ldiruvchi, mamlakat taraqqiyotining uzviy bog‘liq ikki strategik tayanchidir.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida ushbu uyg‘unlik yanada chuqur mazmun kasb etmoqda. Konstitutsiyaning yangi tahriri inson qadriini eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etib, “inson — jamiyat — davlat” tamoyilini mamlakat taraqqiyotining konstitutsiyaviy asosiga aylantirdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli konstitutsiyaviy islohotlar, qonun ustuvorligi, ijtimoiy davlat tamoyillarini qaror toptirish va inson manfaatlarini ta’minlashga

qaratilgan o‘zgarishlar O‘zbekiston tanlagan taraqqiyot yo‘lining to‘g‘ri va izchil ekanini tasdiqlamoqda.

Konstitutsiyada milliy davlatchilik huquqiy asoslari sifatida davlat hokimiyatining tashkil etilishi, hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi, xalq hokimiyatchiligi asoslari va davlat suvereniteti kabilar qat’iy belgilandi. Inson huquqlari va erkinliklarining oliy qadriyat sifatida e’lon qilinishi mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishini aks ettirdi. O‘tgan davrda konstitutsiyaviy islohotlar izchil ravishda amalga oshirildi: davlat boshqaruvi modernizatsiya qilindi, hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi takomillashtirildi, sud hokimiyatining mustaqilligi bosqichma-bosqich mustahkamlandi.

Davomi 3-betda

Sulton RAYEV: “YANGI O‘ZBEKISTON TAJRIBASI O‘ZINING TIZIMLILIGI, MUVOZANATI VA YUQORI MOSLASHUVCHANLIGI BILAN AHAMIYATLIDIR”

Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY) bosh kotibi Sulton Rayev O‘zbekiston davlat mustaqilligining 35 yilligi arafasida “Dunyo” AA muxbiriga eksklyuziv intervyu berdi.

— Janob bosh kotib, Yangi O‘zbekistonda keng ko‘lamli islohotlar boshlanganiga 10 yil bo‘lmoqda. Ushbu davr natijalarini qanday baholaysiz va mamlakatda ro‘y bergan qaysi o‘zgarishlar, sizningcha, eng ahamiyatli hisoblanadi?

— Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi yangi O‘zbekiston islohotlarining o‘n yilligi — bu nafaqat izchil ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot davri, balki davlat va jamiyat hayotining mutlaqo barcha jabhalarini qamrab olgan haqiqiy tarixiy uyg‘onish — Uchinchi Renessansdir.

Mintaqamizdagi jarayonlarni ko‘p yillardan buyon kuzatib kelayotgan madaniyat arbobi, yozuvchi va diplomat sifatida ishonch bilan ayta olamanki, donishmand ajdodlarimiz

tomonidan ikki buyuk uyg‘onish davri — IX-XII asrlardagi Birinchi Renessans hamda XIV-XV asrlardagi Ikkinchi — Temuriylar Renessansi shaklida yaratilgan shonli tarixiy-madaniy merosga tayanib, O‘zbekiston ochiqlik, modernizatsiya va yetakchilik sari ulkan sifat sakrashini amalga oshirdi.

Bu sa’y-harakatlar sharoifati bilan bugungi kunda biz ushbu qardosh mamlakat va jamiyatda yana bir muhim uyg‘onish jarayoni yuz berayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Bunda “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi Renessans” so‘zlari sodir bo‘layotgan voqealikni to‘la aks ettirib, yanada ulug‘vor maqsadlar sari ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Davomi 2-betda

Tahlil



ELLIK YILLIK SOLIQ IMTIYOZI

Toshkent xalqaro moliya markazi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qonunning huquqiy kafolatlari

O‘zbekiston keyingi yillarda investorlar uchun ochiq mamlakatga aylandi. Bu faqat sarmoyadorlarga berilayotgan keng imkoniyat, yangidan yangi imtiyozlar bilan bog‘liq emas. Avvalo, mamlakat ichida erkin ishlash uchun qulay va ishonchli muhit yaratilgani xorijlik investorlarni yurtimizga faol chorlamog‘da. Ana endi ularning huquqiy kafolatlari konstitutsiyaviy qonun bilan ham himoyalangani.

Joriy yil 13-iyul kuni Prezidentimiz “Toshkent xalqaro moliya markazi to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunni imzoladi. Bu nafaqat chet ellik investorlar uchun huquqiy kafolat, balki mamlakatimiz iqtisodiy hayoti, huquqiy tizimi, mahalliy tadbirkorlar faoliyatidagi tarixiy voqea,

yuqori maqomga ega hujjat sifatida qabul qilindi. O‘zbekiston iqtisodiyotining jahon maydonidagi o‘mini yanada mustahkamlovchi muhim qadam sifatida baholanmoqda.

Davomi 4-betda

Hamkorlik istiqbollari



ILM=FAN CHEGARALARNI TAN OLMAYDI

Keyingi yillarda mamlakatimizda kechayotgan keng ko‘lamli islohotlar xalqaro akademik hamjamiyat tomonidan katta qiziqish va yuksak e’tirof bilan kuzatilmoqda. Ayniqsa, oliy ta’limdagi ochiqlik siyosati, ta’lim sifatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash hamda universitetlar o‘rtasidagi sheriklik munosabatlarini kengaytirish borasidagi ishlar O‘zbekistonni mintaqaning muhim ta’lim markazlaridan biriga aylantirdi.

Davomi 5-betda

Sulton RAYEV: “YANGI O‘ZBEKISTON TAJRIBASI O‘ZINING TIZIMLILIGI, MUVOZANATI VA YUQORI MOSLASHUVCHANLIGI BILAN AHAMIYATLIDIR”

Boshlanishi 1-betda

Men eng muhim o‘zgarishlar qatorida avvalombor institutsional yangilanish va inson qadriga ko‘rsatilayotgan ehtiromni ta’kidlashni istayman. Mamlakat rahbari tomonidan “Inson qadri uchun” fundamental tamoyilining e‘lon qilinishi davlat boshqaruvi falsafasini o‘zgartirib yubordi. Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, keng ko‘lamli sud-huquq islohoti, mulk huquqining himoya qilinishi va tadbirkorlikning qo‘llab-quvvatlanishi mamlakat ichida butunlay yangicha ishonch muhitini shakllantirdi.

Ma’naviy va madaniy yuksalish jarayoni alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Buyuk ipak yo‘lining markazi va sivilizatsiyalar chorrahasi sifatidagi o‘z tarixiy missiyasini anglab yetdi. Milliy merosning tiklanishi, adabiyot va san’atning qo‘llab-quvvatlanishi, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon va boshqa qadimiy shaharlardagi noyob obidalarning restavratsiya qilinishi bunga yaqqol misoldir.

Inson kapitalining faollashtirilgani maktabgacha ta’limdan tortib, universitetgacha bo‘lgan ta’lim sohasiga kiritilayotgan keng ko‘lamli investitsiyalar, Prezident maktablarining tashkil etilishi, yoshlar tashabbuslarining qo‘llab-quvvatlanishi mamlakat taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Aniq strategiya, siyosiy iroda va xalqning qo‘llab-quvvatlashi natijasida qisqa tarixiy muddatlarda chuqur va keng ko‘lamli o‘zgarishlarni amalga oshirish mumkinligini O‘zbekiston butun dunyoga namoyish etdi.

— O‘zbekiston va TURKSOY o‘rtasidagi hamkorlikning qaysi natijalarini eng muvaffaqiyatli deb hisoblaysiz va kelajakda qanday qo‘shma loyihalar ustuvor ahamiyat kasb etishi mumkin?

— O‘zbekistonning Xalqaro turkiy madaniyat tashkilotiga to‘laqonli va teng huquqli asosda integratsiyalashuvi hamda tizimli faolligi 1993-yilda turkiy davlatlar tomonidan tashkil etilgan va yangi davrdagi ilk xalqaro turkiy gumanitar-madaniy hamkorlik tashkiloti hisoblangan tuzilmamiz uchun muhim ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston TURKSOY faoliyatiga o‘ziga xos madaniy teranlik, boy an‘analar



hamda yuksak darajadagi akademik va ijodiy tafakkumi olib kirdi.

So‘nggi yillardagi hamkorligimizning eng muvaffaqiyatli natijalari qatorida quyidagilarni qayd etgan bo‘lardim.

Xivanning 2020-2021-yillarda Turkiy dunyo madaniy poytaxti, Qo‘qonning esa turizm poytaxti deb e‘lon qilinishi xalqaro miqyosdagi yorqin voqea bo‘ldi. Bu jahon hamjamiyati e‘tiborini O‘zbekistonning noyob me‘morchiligi va xalq hunarmandchiligiga jalb qilish imkonini berdi. Joriy yilning iyun oyida esa Andijon Turkiy dunyoning madaniy poytaxti deya e‘lon qilindi.

TURKSOY o‘z faoliyati hamda hamkorlarimiz tomonidan o‘tkazilayotgan tadbirlar doirasida mumtoz merosni asrab-avaylash va targ‘ib qilish jarayonida faol ishtirok etmoqda. Xususan, o‘zbek zaminining Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abu Rayhon Beruniy kabi ko‘plab ulug‘ allomalari hamda XX asr adabiyoti namoyandalari Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Mahmudxo‘ja Behbudiyga bag‘ishlangan muhim tadbirlar, xalqaro anjumanlar va nashriyot loyihalarini amalga oshirdik.

Samarqandda “Sharq taronalari”, Termiz va Nukusda Baxshichilik san’ati, Qo‘qonda Xalqaro hunarmandchilik festivallarining muntazam o‘tkazib kelinayotgani tufayli O‘zbekiston madaniy muloqot markaziga aylandi.

Kelgusidagi ustuvor yo‘nalishlar haqida so‘z yuritganda turkiy madaniy merosni raqamlashtirish bo‘yicha sa’y-harakatlarni tilga olishimiz lozim. Bugun turkiy xalqlar qo‘lyozmalari va folklorining yagona raqamli

kutubxonasini hamda elektron arxivini yaratish bo‘yicha ishlar boshlab yuborilgan.

Yosh yozuvchilar, rassomlar, kinoijodkorlar, restavratorlar, arxeologlar hamda madaniy merosni asrash va o‘rganish bo‘yicha mutaxassislar uchun qo‘shma dasturlarni yo‘lga qo‘yishga e‘tibor kuchaytiriladi.

Birgalikda kino loyihalar yaratish, teatr festivallari o‘tkazish, turkiy dunyoning buyuk mutafakkirlari asarlari asosida tarixiy-biografik filmlar suratga olish va spektakllar sahnalashtirish yo‘lga qo‘yildi.

— O‘zbekistondagi islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri yanada ochiq xalqaro siyosatni yaratishga qaratildi. Sizingcha, bu o‘zgarishlar xalqaro hamjamiyatning ishonchini mustahkamlashga qanchalik hissa qo‘shdi?

— Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan shakllantirilgan va mamlakat atrofida barqarorlik hamda ochiqlik muhitini yaratishga qaratilgan O‘zbekistonning yangi tashqi siyosiy doktrinasini bugun xalqaro hamjamiyat tomonidan haqli ravishda samarali mintaqaviy diplomatiyaning ibratli namunasi sifatida baholalanmoqda.

Eng asosiy yutuq qo‘shnilar bilan itti-fodqosh bo‘lishdir. Markaziy Osiyoda pragmatik, yaxshi qo‘shnichilik va proaktiv siyosat yuritilmoqda. O‘zbekiston chegaralarini demarkatsiya qilish, suv resurslaridan tejimli foydalanish, transport kommunikatsiyalari bo‘yicha ko‘p yillik dolzarb masalalarni hal etishga va sun‘iy to‘siqlardan xalos bo‘lishga muvaffaq bo‘ldi. Rasmiy Toshkent tashabbusi bilan yo‘lga qo‘yilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari formati mintaqani jipslashtirib, uni potensial xavf-xatarlar zonasidan barqarorlik, ishonch va umumiy o‘shishning yagona makoniga aylantirdi.

Aynan mana shu yaxshi qo‘shnichilik siyosati Toshkentga nisbatan BMT, Yevropa Ittifoqi, YXHT, SHHT, Turkiy davlatlar tashkiloti va boshqa yetakchi xalqaro tuzilmalarning yuksak hurmatga asoslangan munosabatini shakllantirdi. Bugungi kunda O‘zbekiston nafaqat mintaqaning muhim davlati, balki konstruktiv global kun tartibini shakllantirishga qodir bo‘lgan, mas’uliyatli va ishonchli xalqaro huquqiy hamkor sifatida tan olinmoqda.

— Bugun O‘zbekiston barqaror rivojlanish, “yashil iqtisodiyot”, raqamli transformatsiya, madaniyat, adabiyot, ta’lim va inson kapitalini rivojlantirish yo‘nalishlaridagi tashabbuslarni faol ilgari

surmoqda. Yaqin yillarda ushbu sohalarda TURKSOY doirasidagi hamkorlik uchun qanday imkoniyatlarni ko‘ryapsiz?

— Bugungi kunda madaniyat va ta’lim barqaror rivojlanish hamda ekologik tafakkur tushunchalari bilan chambarchas bog‘liqdir. TURKSOY O‘zbekistonning zamonaviy ustuvorliklariga mos keladigan qator loyihalarni tayyorlamoqda.

O‘zbekistonda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini takomillashtirish hamda uni 34 harfdan iborat Umumturkiy alifbo standartlariga izchil yaqinlashtirish borasidagi qadamlar butun turkiy dunyo uchun fundamental ahamiyatga ega. TURKSOY bu tarixiy jarayonni to‘la qo‘llab-quvvatlaydi.

Yaqin yillarda biz har tomonlama ekspert, ilmiy-uslubiy va noshirlik yordamini ko‘rsatish niyatidamiz. Bu borada o‘zbek va boshqa turkiy tillar o‘rtasida badiiy hamda ilmiy adabiyotlarni sinxronlashtirish qilish va tarjima qilishni sinxronlashtirish uchun yagona akademik standartlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Yangilangan yozuv asosida qo‘shma ta’lim dasturlari, terminologik lug‘atlar va matnlarning elektron korpuslarini yaratishni rejalashtirganimiz. Bu esa turkiy xalqlar o‘rtasidagi til muloqoti va o‘zaro anglashuvni sezilarli darajada osonlashtiradi.

Orolbo‘yi muammosi — butun turkiy dunyoning umumiy dardi va tashvishi. Biz TURKSOY doirasida jahon ijodiy ziyolilari e‘tiborini Orol havzasi ekologiyasiga jalb etish maqsadida Nukus va Mo‘ynoqda xalqaro simpoziumlar, yozuvchi va rassomlarning ekologik forumlarini o‘tkazishni maqsad qilganimiz.

TURKSOY tarjimonlik ishiga sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etishni hamda tillarni saqlab qolishni faol qo‘llab-quvvatlaydi. Biz innovation platformalardan foydalangan holda o‘zbek mumtoz adabiyoti vakillari va zamonaviy mualliflarning asarlarini barcha turkiy xalqlar tillariga tarjima qilish uchun O‘zbekiston IT-parklari imkoniyatini ishga solish niyatidamiz.

O‘zbekiston kreativ sanoatni rivojlantirish bo‘yicha mintaqada tan olingan yetakchilardan biridir. Biz O‘zbekistonning tarixiy markazlarini Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Turkmaniston, O‘zabayjon va Turkiyaning madaniy obyektlari bilan bog‘laydigan, masalan, turkiy dunyoning buyuk mutafakkirlari izidan transcagaraviy madaniy-turistik yo‘nalishlarni ishlab chiqmoqchimiz.

— Sizingcha, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilgan tashabbuslardan qaysilari nafaqat bizning

mamlakatimiz, balki Markaziy Osiyo va butun xalqaro hamjamiyat uchun muhim ahamiyatga ega?

— Toshkentning strategik tashabbuslari orasida global ahamiyatga molik uchta asosiy loyihani alohida ta’kidlagan bo‘lardim.

Avvalambor, bu Markaziy Osiyoda hamkorlikni institutsionallashtirishdir. Shu ma’noda, mintaqa mamlakatlari yetakchilarining Maslahat uchrashuvlari mexanizmining yo‘lga qo‘yilishi fundamental bosqich bo‘ldi. Bu iqtisodiy integrasiyaga, shaffof transport-logistika yo‘laklarini yaratishga hamda mintaqaning 80 millionlik aholisi uchun oziq-ovqat va energetika xavfsizligini ta’minlashga zamin yaratdi.

Markaziy va Janubiy Osiyoning o‘zaro bog‘liqligi strategiyasi muhim ahamiyatga ega. “O‘zbekiston — Afg‘oniston — Pokiston” temir yo‘lini, ya’ni Transafg‘on yo‘lagini qurish tashabbusi Yevroosiyaning geo iqtisodiy xaritasini tubdan o‘zgartirishga qodir asr loyihasidir. Bu Markaziy Osiyo davlatlariga jahon okeani portlariga chiqish uchun eng qisqa yo‘lni ochib beradi.

Orolbo‘yi mintaqasiga qaratilgan xalqaro tashabbuslar diqqat markazida bo‘ladi. O‘zbekiston tashabbusi bilan Orolbo‘yining ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasini deb e‘lon qilangani hamda BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyasi imzolangani mahalliy atrof-muhim muammosini xalqaro ilmiy va ekologik hamkorlik loyihasiga aylantirdi.

Madaniyat sohasida Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida turkiy dunyo birligiga qo‘shgan hisssasi uchun Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotning ta’sis etilishi tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu qadam turkiy mamlakatlar ziyolilari tomonidan yuksak e’tirof bilan kutib olindi.

— Xalqaro ekspertlar Yangi O‘zbekiston islohotlari tajribasini mintaqadagi keng ko‘lamli o‘zgarishlarning yorqin namunasi sifatida ko‘rmogda. Sizingcha, bu tajribaning qaysi jihatlari boshqa davlatlar uchun alohida qiziqish uyg‘otadi?

— Yangi O‘zbekiston tajribasi o‘zining tizimliligi, muvozanatligi va yuqori moslashuvchanligi bilan ahamiyatlidir.

Xorijiy davlatlarda tezkor iqtisodiy islohotlarning kuchli ijtimoiy himoya bilan uyg‘unlashtirilgani katta qiziqish uyg‘otadi.

O‘zbekiston vayronkor “shok terapiyasi”dan voz kechdi. Valyuta bozorini erkinlashtirish, soliq islohoti va xususiyalashtirish jarayonlari ijtimoiy yordam ko‘lamini manzilli kengaytirish hamda xalq ehtiyojlarini hal etishning birlamchi bo‘g‘ini sifatida mahalla institutini rivojlantirish bilan birga olib borildi.

Hokimiyat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotda ochiqlik tamoyili ta’minlandi. O‘zbekiston Prezidenti Xalq qabulxonalarining o‘ziga xos instituti ijtimoiy keskinlikni yumshatgan va mansabdor shaxslar mas’uliyatini oshirgan tezkor hamda samarali aloqa kanaliga aylandi.

Globalashgan davrda milliy o‘zlikni saqlab qolishga erishilmoqda. O‘zbekiston milliy qadriyat, keksalarga ehtirom, an‘ana va ona tiliga hurmatni yo‘qotmagan holda zamonaviy AT-klastertlar, moliya markazlari va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish quvvatlarini qurish mumkinligini ko‘rsatdi. Aynan tarixiy ildizlarga sodiqlik va kelajakka intilish o‘rtasidagi uzviy muvozanat ushbu tajribani chinakam ibratli qilib ko‘rsatadi.

— Yangi O‘zbekiston islohotlarining 10 yilligi munosabati bilan mamlakatimiz xalqi va rahbariyatiga tilaklaringiz.

— TURKSOY hamda shaxsan o‘z nomimdan qardosh O‘zbekiston xalqi va muhtaram Prezident Shavkat Mirziyoyevni ushbu qutlug‘ sana bilan chin dildan tabriklayman!

O‘zbekiston — o‘tmishi shonli, kelajagi yanada buyuk bo‘lgan tabarruk zamin. Sizlar o‘tgan davr ichida Uchinchi Rennessansning mustahkam poydevorini qo‘ymoqdasis.

Birodar o‘zbek xalqiga tinchlik, musaffo osmon, so‘nmas birdamlik, farovonlik va mustahkam salomatlik tilayman!

Yangi O‘zbekiston Yevroosiyaoda ilmfan, madaniyat, tinchlik va totuvlik tayanchi bo‘lib, taraqqiyot yo‘lidan ishonch bilan odimlashda davom etsin.

Ishonchim komilki, yaqin yillarda O‘zbekiston nafaqat Markaziy Osiyoning iqtisodiy va madaniy lokomotivi sifatidagi maqomini mustahkamlaydi, balki dunyoga Ulug‘bek, Navoiy va Beruniy shuhratiga munosib bo‘lgan buyuk olimlar, yozuvchilar, mutafakkirlar va davlat arboblarning yangi nomlarini ham tuhfa etadi.

Do‘stligimiz va Turkiy dunyoning madaniy birdamligi kundan-kunga mustahkamlanib boraversin!

Yana bir bor go‘zal O‘zbekistonga tinchlik, farovonlik va muvaffaqiyat tilayman!

“Dunyo” AA
Istanbul shahri



Inson qadri uchun

Hozir tilgan, mehnat qilgan inson kam bo‘lmaydi. Buning isbotini Mo‘ynoq tumani Do‘stlik mahallasida yashovchi Gulfarida Ismoilova hayoti misolida ham ko‘rish mumkin.

U ajratilgan imtiyozli 12 foizli kreditdan oqilona foydalanib, non mahsulotlari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi. Endi uning xonadonidan har kuni issiq nonning yoqimli hidi taraladi. Shu tariqa bir oilaga daromad, mahalla ahlining dasturxoniga baraka kirdi.



— Yoshlar uchun yaratilayotgan bunday imkoniyatlar orzularimizni ro‘yobga chiqarib, daromad topishimizga xizmat qilmoqda, — deydi Gulfarida. — Novvoylik barakali kasblardan. Chunki non — rizq ramzi. Shu ishini boshlab, imkoniyatlar haqiqiy kuchga aylanishi uchun intilish, mehnat zarur ekanini bildim.

“Madeli” ovul fuqarolar yig‘inida yashovchi Turg‘angul Jumamuratova ham mo‘ynoqliklarga ajratilgan imtiyozli kreditdan samarali foydalanib, biznesini yo‘lga qo‘ydi. Ilgari bu hududda non mahsulotlari ishlab

chiqarilmas edi. Turg‘angul tashabbusi va mehnati bilan shu ehtiyoj to‘ldi.

— Menga bildirilgan ishonch va yaratilgan imkoniyat hayotimni o‘zgartirdi, — deydi yosh tadbirkor. — Yurtimizdagi o‘zgarishlardan kuch olib, tadbirkorlikni boshladim. To‘g‘ri yo‘l tanlagan ekanman. Hozir mahalladoshlarimiz issiq non olyapti, biz daromad topypmiz. Elning obodligi mana shunday kichik, lekin muhim jihatlar bilan shakllanib boraverarkan.

So‘nggi yillarda Qoraqalpog‘istonda muqobil energiya manbaiga qiziqish tobora

QUYOSH DAN QUVVAT, EL DAN KUCH OLGAN YANGILANISHLAR

ortib bormoqda. Xususan, quyosh panellarini o‘rnatayotgan fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari soni kun sayin ko‘paymoqda. Jumladan, Mo‘ynoq bugun nafaqat ekologik tiklanish, balki energiya tejankorligi, zamonaviy infratuzilma va barqaror taraqqiyot yo‘lidan ham ilg‘or odimlamogda. Xususan, tumanda iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash, “yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Bundan tashqari, aholi, tadbirkorlar orasida ham quyosh panelini o‘rnatish yaxshi odatga aylanib bormogda. Quyosh paneli o‘rnatganlarga berilayotgan imtiyozlar bu qiziqishni yanada kuchaytirmogda. Masalan, ular 3 yil davomida mol-mulk yoki yer solig‘i to‘lashdan ozod etilgan. Shuningdek, ortiqcha

energiyani davlatga sotsa ham daromaddan foyda solig‘ini to‘lamaydi.

— Mo‘ynoq tumanidagi 473 ta xonadonda quyosh paneli o‘rnatilgan. Quyosh paneli o‘rnatilishidan avval bir oylik elektr iste’moli 3 million kilovatt soat edi. Hozir bu ko‘rsatkich 2 million kilovatt-soatni tashkil etmogda. Ya’ni quyosh paneli o‘rnatilgani tufayli 1 million kilovatt-soat elektr energiyasi iqtisod qilindi, — deydi Mo‘ynoq tumani elektr ta’minoti korxonasi energosavdo bo‘limi boshlig‘i Abat Allaniyazov.

Yillar davomida Mo‘ynoq tumani aholisi uchun toza ichimlik suv katta muammo edi. So‘nggi yillardagi o‘zgarishlar sabab 100 kilometr masofadan quvur tortilib, aholining toza ichimlik suvga talabi qondirildi.

— Har kuni jadval bo‘yicha suvdan namuna olib, kimyoviy va bakterologik



tahlil o‘tkazamiz, — deydi Mo‘ynoq tumani suv ta’minoti filiali laboranti Zibaxon Tajimuratova. — Hozir laboratoriyamiz milliy standart talablariga to‘liq javob beradi. Ana shu imkoniyatdan foydalanib, aholiga yetkazilayotgan suvni muntazam tahlil qilib boryapmiz. Ayni paytda odamlarga toza, sifatli suv yetkazib berilyapti.

Yillar davomida Mo‘ynoqqa ichimlik suv olisdan olib kelingan. Aholi uzun navbatda turib, idishlarini to‘ldirgan. Bugun mo‘ynoqliklarni qiynagan ushbu masalalar asta-sekin yechimini topib bormogda.

— Mo‘ynoq tumani “Bo‘zatov” ovul fuqarolar yig‘ini Talliq chiqlog‘ida yashayman, — deydi Aynura Begiyeva. — Ichimlik suv masalasida juda qiynalganimiz. Suvni 5-6 kilometr uzoqdagi quduqdan olib kelardik. Hozirgi o‘zgarishlarni ko‘rib, quvonib yashayapmiz.

Ayni paytda Mo‘ynoq tumanida suv ta’minotini yaxshilash maqsadida keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirilmoqda.



Ozarbajjondan kelgan mutaxassislar zamonaviy suv rezervuarlarini qurmogda.

— Loyihamizga ko‘ra, 1264 fuqaro suv bilan ta’minlanadi. Tumandagi Do‘stlik mahallasida har biri 300 kubli ikkita suv rezervuarimiz bor. Chag‘irli ovulida esa har biri 400 kub sig‘imga ega ikkita suv rezervuarini tayyor qildik.

“Tiko‘zak” ovul fuqarolar yig‘inida ikkita rezervuar qayta ta’miralanib, qo‘shimcha 100 kubli rezervuar qurildi, — deydi “Aciko” kompaniyasi muhandisi Fazoil Makaromov. — Shuningdek, “Uchsoy” ovul fuqarolar yig‘ini aholisi uchun ikkita 200 kubli suv ombori tayyor holatga keltirildi. Mo‘ynoq markazida har biri 1400 kubli ikkita suv rezervuarini qurib, foydalanishga topshirish arafasidamiz. Hozir ishlarningizning 90 foizdan ortig‘i yakunlandi. Maqsadimiz Mo‘ynoq tumanining suv ta’minotini to‘liq hal qilish.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

MUSTAQILLIK VA KONSTITUTSIYA: ADOLAT VA TARAQQIYOT YO‘LI



**Mirzo Ulug‘bek
ABDUSALOMOV,
Konstitutsiyaviy sud raisi,
O‘zbekistonda xizmat
ko‘rsatgan yurist**

Boshlanishi 1-betda

Uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasini belgilab beruvchi hayotiy dastur

O‘zbekistonning jadal va barqaror rivojlanishi milliy davlatchilikda mustahkam huquqiy va institutsional poydevor yaratilganidan dalolat beradi. Ayniqsa, keyingi yillarda mamlakat hayotida boshlangan keng ko‘lamli islohotlar mazkur taraqqiyotni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Bu jarayon dunyo hamjamiyati tomonidan “Yangi O‘zbekiston” fenomeni sifatida e’tirof etilmoqda. Bu atama tom ma’nodavlat va jamiyat rivojlanishining yangi falsafasi, xalqchil boshqaruv madaniyati hamda konstitutsiyaviy taraqqiyotning zamonaviy modeli bildiradi.

Mazkur jarayonning eng muhim xususiyati shundaki, taraqqiyot markaziga davlat emas, inson masalasi qo‘yildi. Bu esa “davlat — jamiyat — inson” emas, balki “inson — jamiyat — davlat” degan mutlaqo yangi konstitutsiyaviy formulaning hayotga tatbiq etilishida o‘z ifodasini topdi.

So‘nggi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilgan islohotlarning asosiy maqsadi inson qadriini yuksaltirish, huquq va erkinliklarning ishonchli kafolatlarini yaratish, davlat boshqaruvini xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi ochiq va samarali tizimga aylantirishdan iborat bo‘ladi. “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak”, degan tamoyil butun davlat siyosati uchun amaliy dasturga aylanib, davlat nazorat qiluvchi va jazolovchi emas, balki xalq manfaatiga xizmat qiluvchi institut sifatida belgilab qo‘yildi. Bu esa davlat va fuqaro o‘rtasidagi munosabatlarning mazmunan yangilanishiga, jamiyatda ochiq muloqot, hisobdorlik va mas’uliyat muhitining qaratilishiga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumini asosida qabul qilingan yangi tahriri ushbu fenomenning huquqiy poydevorini yanada mustahkamladi. Unda inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatli oliy qadriyat, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat prinsipi, Konstitutsiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi, qonun ustuvorligi, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish kabi muhim qoidalar mustahkamlandi. Natijada Konstitutsiya nafaqat davlat tuzilishini belgilovchi hujjat, balki mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasini belgilab beruvchi hayotiy dasturga aylandi.

Binobarin, “Yangi O‘zbekiston” fenomeni adolat, inson qadri, qonun ustuvorligi, ijtimoiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatiga asoslangan yangi konstitutsiyaviy taraqqiyot modeli bo‘lib, mustaqil O‘zbekistonning bundan keyingi barqaror taraqqiyot yo‘lini belgilab beradigan strategik g‘oyadir. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida Konstitutsiyaning ahamiyati yanada teran mazmun kasb etib, u keng ko‘lamli islohotlarning huquqiy mezoniga aylandi. Asosiy

qonunimizning hayotbaxsh kuchi shundaki, mamlakatda uning ustunligining so‘zsiz tan olinishi, butun hududda to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi va yagona huquqiy makonni tashkil etishida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Konstitutsiya har bir fuqaroning huquqiy himoyasini ta’minlab, davlat organlari va jamiyat faoliyati uchun asosiy mezon vazifasini o‘taydi. Shu bois, Konstitutsiyaga hurmat — qonunga, qonunga hurmat esa mustaqillikka hurmat demakdir. Demak, Konstitutsiyaga tayangan davlatgina o‘z mustaqilligini mustahkam saqlay oladi, qonun ustuvor bo‘lgan jamiyatgina barqaror taraqqiyot va farovonlikka erishadi.

Konstitutsiyaviy sud — qonun ustuvorligini ta’minlash vositasi

Huquqiy demokratik davlatning muhim belgilaridan biri Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchini amalda ta’minlaydigan samarali konstitutsiyaviy nazorat tizimining mavjudligidir. Zero, qonun ustuvorligi qonunning mavjudligi bilanina emas, uning Konstitutsiyaga muvofiqligi, bir xil qo‘llanishi va inson huquqlarini amalda himoya qila olishi bilan belgilanadi. Ana shu euzu maqsadga xizmat qiladigan muhim institut esa Konstitutsiyaviy sud sanaladi.

Demokratik an‘analari qaror topgan jamiyatlarda Konstitutsiyaviy sud alohida o‘rin tutadi. U Asosiy qonundagi norma va prinsiplarning hayotga izchil tatbiq etilishini ta’minlaydi, inson va fuqarolarning huquq hamda erkinliklari normativ-huquqiy hujjatlar mazmunida buzilgan taqdirda ularni tiklaydi. Shuningdek, zarur hollarda konstitutsiyaviy normalarni sharhlaydi.

O‘zbekistonda hokimiyatlarning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo‘linishi prinsipiga rioya etilishi, har bir davlat organining o‘z vakolati doirasida faoliyat yuritishi va ular o‘rtasidagi muvozanat mexanizmlarining saqlanishi huquqiy davlat barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, **“Asosiy qonunning himoyachisi bo‘lgan Konstitutsiyaviy sud boshqa sudlardan farqli o‘laroq, faqat Konstitutsiyaga bo‘ysunadi hamda Asosiy qonunning ustunligi prinsipini ta’minlaydi. Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchi hamda ijro etuvchi hokimiyat chiqargan hujjatlarda inson huquq va erkinliklari ustuvorligiga oid konstitutsiyaviy prinsip hamda Konstitutsiya normalariga amal qilinishiga e’tibor qaratadi”**.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbarining yuqorida qayd etilgan konseptual ahamiyatga ega fikrlari Konstitutsiyaviy sudning faoliyati butun mazmun-mohiyatini, funksional vazifalari asosiy yo‘nalishlarini to‘liq ochib beradi. Konstitutsiyaviy sudning qabul qilgan qaror, ajrim va xulosalari Konstitutsiya norma va prinsiplarining respublikaning butun hududida bevosita amal qilinishini ta’minlash va hammada uning so‘zsiz itoatkorlikni shakllantirishda sudlovning o‘ziga xos oliy himoya vositasi sifatida vujudga keldi. Hozir Konstitutsiyaviy sud davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslar faoliyatida adolat, qonuniylilik hamda inson huquqlariga tayangan odil boshqaruv madaniyatini mustahkamlashga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Yaqin tarixga nazar solsak, 1993-yil 6-may kuni “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi bilan mamlakatda konstitutsiyaviy odil sudlov yo‘li orqali konstitutsiyaviy nazorat tizimini amalga oshirishga dastlabki huquqiy asos yaratildi. Xorijiy amaliyotni chuqur o‘rganish, rivojlangan mamlakatlarda amaliyotini qiyoslash natijasida oradan ko‘p o‘tmay, 1995-yil 30-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonun asosida Konstitutsiyaviy sud rasman tashkil etildi. Uning birinchi tarkibi shakllantirildi va u to‘laqonli konstitutsiyaviy organ sifatida o‘z faoliyatini boshladi. Muhim jihati, mazkur qonunning 1-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko‘radigan sud hokimiyati organi hisoblanishi mustahkamlangan edi.



Konstitutsiyamizning 16-moddasiga asosan “O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi. Birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo‘lishi mumkin emas”ligiga oid muhim konstitutsiyaviy qoida-talabning amalda bo‘lishi uchun mas’ul organ hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli konstitutsiyaviy islohotlar Konstitutsiyaviy sudning huquqiy maqomi va vakolatlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Konstitutsiyaning yangi tahriri hamda u asosida qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritilgan “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun sudning mustaqilligini yanada mustahkamladi, uning Konstitutsiya ustuvorligini ta’minlash borasidagi institutsional salohiyatini kengaytirdi.

Prezidentimizning 2025-yil 18-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini yanada takomillashtirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi tarixiy farmoni qonun ustuvorligini mustaqil qadriyat sifatida qaror toptirish, inson qadriini davlat siyosatining markaziga qo‘yish va konstitutsiyaviy adolatni amaliy mazmun bilan boyitishga qaratilgan muhim institutsional qadam bo‘ladi.

Bugungi kunda Konstitutsiyaviy sudning faoliyati ochiqlik, shaffoflik va zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirilmoqda. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, davlat organlari faoliyatida Konstitutsiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishiga ko‘maklashish, konstitutsiyaviy adolatni qaror toptirishga qaratilgan chora-tadbirlar ushbu institutning jamiyat hayotidagi o‘mini yanada mustahkamlamoqda.

Umuman olganda, Konstitutsiyaviy sud faoliyatini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir farmon ijrosi izchil ta’minlanmoqda. Qabul qilingan qarorlar doimiy nazoratda bo‘lib, manfaatdor idoralar bilan hamkorlikda ijro intizomi tartibga solinmoqda. Bu jarayon Konstitutsiyaviy sudni zamonaviy, ochiq va jamoatchilik ishonchiga sazovor institut sifatida rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudning axborot tizimini davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali raqamli konstitutsiyaviy sud shakllanadi. Zero, huquqiy demokratik davlat barpo etish yo‘lidagi dadi borayotgan yangi O‘zbekiston uchun eng oliy huquqiy mezon Konstitutsiya bo‘lsa, eng oliy qadriyat insondir. Ana shu ikki buyuk g‘oya mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning mazmun-mohiyatini belgilab beradi.

Prezidentimizning 2026-yil 16-fevraldagi “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha doir ishlarni ko‘radigan sud hokimiyati organi islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston — 2030”

strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergan muhim siyosiy-huquqiy hujjatdir. Farmonda belgilangan ustuvor vazifalar Konstitutsiyamizda mustahkamlangan inson qadriini ulug‘lash, ijtimoiy davlat barpo etish, adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash kabi konstitutsiyaviy tamoyillarni hayotga izchil tatbiq etishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda boshlangan keng ko‘lamli islohotlar hozirda yangi sifat bosqichiga ko‘tarilib, uning amaliy natijalari hayotimizda yaqqol sezilmoqda. Uning zamirida davlat boshqaruvining bosh ma’no va mazmuni sifatida chinakam xalqchil siyosat yotibdi, desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Buni nafaqat mamlakatimiz ichkarisida, balki xalqaro maydondagi e’tiroflar ham tasdiqlab turibdi. Mazkur shiddati va ortga qaytmas islohotlar markazidan inson qadri, uning huquq va manfaatlarini ta’minlash tamoyili o‘rin olgan. Davlatimiz rahbarining ta’biri bilan aytganda, **“Yangi O‘zbekistonda islohotlar avvalo inson manfaati yo‘lida, uning hayotini farovon qilish uchun xizmat qilishi kerak”**.

Konstitutsiyaning yangilanishi, sud-huquq tizimini isloh qilish, jamiyatda ochiqlik va javobgarlik muhitini shakllantirish kabi tashabbuslar fuqarolarning davlatga ishonchini mustahkamlamoqda.

O‘zbekistonning so‘nggi o‘n yillik taraqqiyotini faqat statistik ko‘rsatkichlar bilan baholash yetarli emas. Bu milliy davlatchilik kelib chiqqan xalqqa yaqinlashirish, yoshlar va xotin-qizlar imkoniyatlarini kengaytirish, ta’lim va innovatsiyaga ustuvor ahamiyat berish — bularning barchasi Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishga qaratilgan strategik qadamlar.

Prezidentimiz ilgari surgan Uchinchi Renessans aynan shu haqiqatni anglashdan kelib chiqqan. Inson kapitaliga sarfmoja kiritish ijtimoiy siyosat, davlat xavfsizligi, iqtisodiy barqarorlik va milliy raqobatbardoshlik masalasidir. Maktabgacha ta’lim qamrovining kengayishi, zamonaviy maktablar barpo etilishi, yangi universitetlar va xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallarining ochilishi, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan qarorlar kamida bir necha o‘n yillik istiqbolni ko‘zlagan strategik tafakkur va yondashuv hosilasidir.

Ijtimoiy davlat va huquqiy kafolatlar

Konstitutsiyaning yangi tahririda O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatida mustahkamlanishi mamlakatimiz konstitutsiyaviy taraqqiyotida mutlaqo yangi bosqichni boshlab

berdi. Ijtimoiy davlat tamoyili har bir insonning mehnat qilish, ta’lim olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, ijtimoiy himoya va munosib turmush darajasiga bo‘lgan huquqlarini ta’minlashni davlatning ustuvor vazifasi sifatida belgilaydi. Bugungi kunda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan davlat dasturlari aynan ijtimoiy davlat g‘oyasining hayotga tatbiq etilayotganini ko‘rsatadi. Shu ma’noda, ijtimoiy davlat maqomi Konstitutsiyamizdagi eng muhim huquqlardan biri bo‘ladi.

2025-yilda Konstitutsiyaning 57-moddasi asosida mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarining huquqlarini ta’minlash va ijtimoiy davlat prinsipini ro‘yobga chiqarish borasida tizimli ishlar qilindi.

Jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta’minlash tizimi takomillashtirildi, I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga qabul qilgan tadbirkorlarga soliq imtiyozlari proaktiv shaklda berila boshladi. Kambag‘al oilalar reyestriga kiritilgan oilalar a’zolarini band qilgan tadbirkorlik subyektlari uchun kompensatsiya taqdim etish tartibi yo‘lga qo‘yildi. “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida 6 ta yangi moliyaviy yordam turi joriy etildi.

O‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Faol hayotga qadam” dasturi ishga tushirildi. Davlat ijtimoiy sug‘urtasi tizimi takomillashtirildi, xususan, fuqarolarni davlat ijtimoiy sug‘urtasi bilan majburiy va ixtiyoriy asoslarda qamrab olish tartibi, davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlarini to‘lash asoslari mustahkamlandi.

Konstitutsiyada xususiy mulk daxlsizligining kuchaytirilishi mamlakat taraqqiyoti uchun muhim huquqiy kafolat bo‘ldi. Xususiy mulk daxlsizligi investitsiya muhiti barqarorligi, raqobat va yangi ish o‘rinlari yaratilishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, mulkdorlar sinfining shakllanishi iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlashning asosiy omilidir. Iqtisodiy jihatdan kuchli jamiyatga siyosiy barqarorlikni saqlay oladi. Shu bois, xususiy mulk va tadbirkorlikni konstitutsiyaviy himoya qilish yangi O‘zbekistonning raqobatbardosh iqtisodiyotini barpo etish va xalq farovonligini oshirishning poydevori hisoblanadi.

Zamonaviy konstitutsionalizm davlat hokimiyatini tashkil etish bilan birga insonning huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Konstitutsiyaning yangi tahririda ekologik huquqlar, fuqarolik jamiyati institutlari va so‘z erkinligiga oid normalarning kuchaytirilishi barqaror taraqqiyotning muhim kafolati bo‘ladi.

Fuqarolarning sog‘lom atrof-muhitga ega bo‘lish huquqi va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishning davlat tomonidan belgilanishi kelajak avlodlar manfaatlarini himoya qiladi. Shuningdek, jamoatchilik nazorati va omaviy axborot vositalari erkinligining konstitutsiyaviy

kafolatlanishi samarali davlat boshqaruvini ta’minlaydi. Zero, erkin fikr, ochiq muloqot va jamoatchilik ishtirokisiz samarali davlat boshqaruvini tasavvur etib bo‘lmaydi.

Umuman olganda, ushbu normalarning Asosiy qonunimizda mustahkamlanishi yangi O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning ishonchli kafolatidir.

Konstitutsiyaviy madaniyat — ortga qaytmas islohotlarning ma’naviy- huquqiy tayanchi

Huquqiy demokratik davlatni barpo etish faqat mukammal qonunlarni qabul qilish bilan cheklanmaydi. Uning haqiqiy muvaffaqiyati, eng avvalo, jamiyatda Konstitutsiyaga hurmat, qonunga itoat va huquqiy ongning qay darajada shakllangani bilan belgilanadi. Shu ma’noda, konstitutsiyaviy madaniyat yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ma’naviy-huquqiy poydevori hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy madaniyat Konstitutsiyani davlat va jamiyat hayotini belgilab beruvchi eng oliy huquqiy va ma’naviy qadriyat sifatida anglash, uning normalariga kundalik hayotda amal qilish va davlat qarorlarini Konstitutsiya mezonlari asosida baholay olish deganidir. Asosiy qonunimiz hayot qomusi sifatida qabul qilingan jamiyatdagina qonun ustuvorligi mustahkamlanib, fuqarolik jamiyati rivojlanadi.

Ayniqsa, yoshlar ongida konstitutsiyaviy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish strategik ahamiyatga ega. Zero, huquqiy ta’lim va fuqarolik mas’uliyatga asoslangan konstitutsiyaviy madaniyat jamiyatda hamjihatlikni kuchaytirib, milliy taraqqiyotning barqarorligini ta’minlaydi.

Bugungi global o‘zgarishlar davrida konstitutsiyaviy madaniyatga nisbatan qo‘yilayotgan talablar ham yangi mazmun kasb etmoqda. Raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi, katta hajmdagi ma’lumotlar aylanmasi inson huquqlari, shaxsiy hayot daxlsizligi, axborot xavfsizligi va algoritmalar adolatligi bilan bog‘liq mutlaqo yangi konstitutsiyaviy masalalarni kun tartibiga chiqarmoqda.

Konstitutsiyaviy nazorat institutlari raqamli transformatsiya sharoitida yangi huquqiy munosabatlarni Konstitutsiyaga nuqtai nazaridan baholash, innovatsiyalar bilan inson huquqlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash hamda milliy konstitutsiyaviy qadriyatlarini asrab-avaylash vazifasini bajaradi.

Yangi O‘zbekistonda shakllanayotgan konstitutsiyaviy madaniyat ana shu euzu maqsadlarga xizmat qilmoqda. Konstitutsiyaga hurmat, inson qadriga ehtirom, qonun ustuvorligiga sadoqat va davlat institutlariga ishonch qanchalik yuksak bo‘lsa, mamlakatimiz mustaqillik ham shunchalik mustahkam, jamiyatimiz birlamligi esa shunchalik barqaror bo‘ladi.

Qisqacha aytganda, mamlakatimizdagi buyuk islohotlar nafaqat zamonaviy va qudratli davlat, balki yuksak insoniy qadriyatlarga tayangan adolati jamiyat barpo etishga qaratilgan va uzoqqa mo‘ljallangan, ortga qaytmas milliy tanlovdir.

Mustaqilligimizning 35 yilligi ana shu tarixiy tanlov, milliy birdamlik va bunyodkorlik irodasining yorqin timsolidir. Bu sana bizdan istiqbol ne’matlarini qadrlash bilan birga Konstitutsiya ustuvorligi, inson qadri va Vatan taraqqiyoti uchun yanada katta mas’uliyat bilan mehnat qilishni talab etadi. Bugun bizni birlashtiradigan eng buyuk kuch — yagona Vatan taqdiri uchun yagona xalq bo‘lib, mas’uliyatni zimмага olish irodasidir. Mustaqil O‘zbekistonimizning bayrog‘i hamisha baland, osmoni musaffo, xalqimizning baxt-u iqboli abadiy bo‘lsin!

Toshkent xalqaro moliya markazi to'g'risidagi konstitutsiyaviy qonunning huquqiy kafolatlari



To'lg'in TESHABOYEV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: davlat nima uchun bu masalani oddiy qonun, hukumat qarori bilan emas, balki aynan eng oliy yuridik kuchga ega konstitutsiyaviy qonun orqali mustahkamlashni ma'qul ko'rdi?

Yirik xalqaro kapital — investitsiya fondlari, transmilliy banklar, suveren fondlar mablag'ni uzoq muddatga yo'naltirayotganda, eng avvalo, davlatning o'z so'zida qanchalik sobit turishi mumkinligini baholaydi. Oddiy qonun yoki hukumat qarori keyingi yillardagi jadal islohotlarda talab va taklifga qarab nisbatan oson o'zgartirilishi mumkin. Bu esa o'nlab yilga mo'ljallangan infratuzilma va moliyaviy loyihalar uchun qo'shimcha noaniqlik omilini saqlab qoladi. Konstitutsiyaviy qonun esa markazga berilgan kafolatlarni eng yuqori yuridik darajada mustahkamlab qo'yadi. Iqtisodchilar ta'biri

bilan aytganda, investor uchun huquqiy riskning pasayishi kapital qiymatining arzonlashishi demakdir.

Suveren reyting va kapital qiymati

Yangi O'zbekistondagi jadal islohotlar jarayonida qonunlar ko'p joriy qilinishi tabiiy hol. Mazkur qonunning qabul qilinishi ham tasodif emas. U mamlakatning xalqaro moliya bozorlaridagi ishonchi izchil ortib borayotgan davrga to'g'ri keldi.

2025-yil may oyida AQSHning "S&P Global Ratings" agentligi O'zbekistonning suveren kredit reytingini "BB-" darajasida tasdiqlab, prognozini "barqaror"dan "ijobiy"ga ko'targandi. Shu yil iyunida xalqaro "Fitch Ratings" reytingni bir pog'onaga — "BB"-dan "BB"ga oshirdi. Joriy yil iyun oyida esa prognozni "barqaror"dan "ijobiy"ga yana ko'tardi. Bu yil 25-iyunda "Moody's Ratings" agentligi ham reytingni "Ba3"dan "Ba2"ga ko'tarib, prognozni "ijobiy"dan "barqaror"ga o'zgartirdi.

Moliyaviy nuqtayi nazardan qaraganda bundan ham muhimrog'i — ana shu jadal xalqaro transformatsiya jarayonida O'zbekistonning ikkilamchi bozordagi xalqaro obligatsiyalari daromadlilik pasayib borgan ko'rinadi. Suveren yevroobligatsiyalar bo'yicha daromadlilik o'tgan yilning 22-mayidagi 6,89 foizdan joriy yil 10-iyuniga kelib 5,43 foizgacha, korporativ obligatsiyalar bo'yicha 7,63 foizdan 6 foizgacha, bank obligatsiyalari bo'yicha esa 8,15 foizdan 6,21 foizgacha qisqargan. Boshqacha aytganda, mamlakat uchun qarz olish xarajati sezilarli darajada pasaymoqda. Bunga davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbati 32 foiz atrofida saqlanishi va xazira buferining 49,7 milliard dollarga yetgani ham ko'maklashyapti.

Toshkent xalqaro moliya markazi to'g'risidagi konstitutsiyaviy qonun xuddi shu tendensiyani mustahkamlashga xizmat qiladigan



institutsional omilga aylanadi. Ya'ni tahlillarda reyting agentliklari makroiqtisodiy baholash ko'rsatkichlaridan tashqari huquqiy-institutsional barqarorlikni ham hisobga oladi. Markazga berilgan konstitutsiyaviy darajadagi kafolatlarni mustahkamlaydi.

Toshkent xalqaro moliya markazi ichki kapital bozori islohotidan ajralgan holda emas, aynan shu islohotlarning uzviy davomi sifatida shakllanmoqda. Xususan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida bank tizimi aktivlarida xususiy sektor ulushini joriy yil yakuniga qadar 60 foizga yetkazish vazifasi belgilangan. Biroq bu maqsadga erishish uchun hali sezilarli ishlar qilinishi lozim. Chunki o'tgan yil 1-oktabr holatiga ko'ra, tizimli ahamiyatga ega banklar mamlakat bank aktivlarining qariyb 64 foizini shakllantirgan. Xalqaro valyuta jamg'armasi hisob-kitoblariga muvofiq, bank aktivlarida davlat ulushi 63 foizni tashkil etayotgani o'rta daromadli mamlakatlardagi 23 foizli

o'rta ko'rsatkichdan deyarli uch barobar yuqori ekanini anglatadi.

Hozirgi paytda ijobiy tendensiyalar ham kuzatilmoqda. Joriy yilning birinchi choragida davlat nazoratidagi banklar 1,86 trillion so'm daromad olgan bo'lsa, davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklar 3,66 trillion so'm sof foyda ko'rgan. Mazkur ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 68,4 foiz o'sgani xususiy banklar raqobatbardoshligi va samaradorligi izchil yuksalib borayotganini tasdiqlaydi.

Aynan mana shu — hali to'liq yakunlanmagan xususiy lashtirish va kapital bozor islohoti kontekstida Toshkent xalqaro moliya markazining vazifasi yanada yaqqol ko'rinadi. U derivativlar, sukuk obligatsiyalari, islom moliyasi va oilaviy ofis xizmatlari kabi yangi moliyaviy vositalar uchun xalqaro standartlarga mos alohida institutsional maydon yaratib, ichki kapital bozori islohotining xalqaro investor bazasiga chiqish kanaliga aylanadi. Boshqacha aytganda,

markazning moliyaviy qiymati raqobatchi yangi birja yaratishda emas, mavjud milliy kapital bozorini xalqaro kapital bilan tutashtiruvchi halqaga aylantirishda namoyon bo'ladi. Biroq bunday nozik va uzoq muddatli tutashtiruvchi vazifani oddiy qonun yoki tartibga soluvchi hujjat emas, aynan konstitutsiyaviy qonun hal etishi mantiqan asosli. Bunda derivativlar va sukuk kabi murakkab moliyaviy vositalarga ishonch faqat qoidalarining yillar davomida o'zgarasligiga kafolat borligida shakllanadi. Kafolati esa eng yuqori yuridik kuch beradigan hujjattan boshqa hech narsa ta'minlay olmaydi.

Soliq imtiyozining fiskal-moliyaviy balansi

Toshkent xalqaro moliya markazi ishtirokchilari uchun 2076-yil 1-yanvargacha — deyarli ellik yilga mo'ljallangan soliq imtiyoziga moliyaviy nuqtayi nazardan fiskal xarajat sifatida qaralishi lozim. Bu budjet yo'qotadigan soliq tushumi, investor uchun esa kelgusi pul oqimini uzoq muddatga ishonchli hisoblash imkonini beruvchi aktivdir. Bunday uzoq muddatli imtiyozning moliyaviy asoslangani faqat bir mezon bilan tekshiriladi — jalb qilingan xususiy kapital, ochilgan ish o'rni va moliyaviy xizmat eksportidan keladigan bilvosita soliq tushumi yo'qotilgan to'g'ridan to'g'ri soliq tushumidan uzoq muddatli istiqbolda o'tib ketishi kerak.

Rasmiy prognozlarga ko'ra, 2030-yilga qadar markaz orqali 20-25 milliard dollar qo'shimcha investitsiya jalb qilinishi, yalpi ichki mahsulot yillik qo'shimcha 1 foizgacha o'sishi va 15 mingtagacha yuqori malakali ish o'rni ochilishi kutilmoqda. Bu raqamlar moliyaviy nuqtayi nazardan tahlil qilinganda ellik yillik imtiyozning "narxi" — yo'qotilgan soliq tushumi faqat jalb qilingan kapital hajmi doimiy ravishda monitoring qilinib, real natijaga aylanganda o'zini oqlaydi.

Dolzarb mavzu

GO'SHT NARXINI MO'TADILLASHTIRISH UCHUN QANDAY CHORALAR KO'RILMOQDA?



Ba'zan jamiyatdagi katta iqtisodiy jarayonlarni tushunish uchun murakkab raqamlar yoki ortiqcha hisob-kitoblarga emas, oddiy hayotiy holatlarga nazar tashlashning o'zi kifoya qiladi. Bugun bozorda yoki ijtimoiy tarmoqlarda go'sht narxi haqidagi munosabatlarga beixtior ko'zimiz tushadi. Kimdir narxlar oshganidan xavotir bildiradi, yana kimdir buning ortida chorvadorning oshib borayotgan xarajatlari, ozuqa va parvarish bilan bog'liq muammolar borligini ta'kidlaydi.

Ammo bir kilogramm go'shtning qiymati ortida oddiy xaridor ko'zi ilg'amaydigan butun bir tizim bor. Unda chorvadorning yillik mehnati, ozuqa bazasi, naslchilik ishlari, veterinariya xizmati va soha oldida turgan muammolar mujassam. Shuning uchun go'sht narxi haqidagi har qanday muhokama aslida yanada kengroq masalani — mamlakatning o'z aholisini sifatli va barqaror oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash imkoniyatini o'rta qo'yadi.

So'nggi yillarda dunyoda kechayotgan jarayonlar shu haqiqatni tasdiqlamoqda. Geosiyosiy ziddiyatlar, logistika zanjirlaridagi uzilishlar, iqlim o'zgarishi va jahon bozorlaridagi beqarorlik oziq-ovqat xavfsizligi har qanday davlat uchun strategik masala ekanini ko'rsatdi. Bugun ichki ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlamasdan turib iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash qiyin.

O'zbekistonda aholi soni o'sishi, shaharlashuv jarayonlari jadallashuvi va iste'mol talabi ortishi chorvachilik va parrandachilik sohasi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Endi gap faqat mahsulot hajmini oshirish bilan cheklanib qolmay, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, yuqori

samarador va raqobatbardosh agrar tizimni shakllantirish haqida bormoqda.

Davlatimiz rahbarining 5-avgust kuni chorvachilik va parrandachilik tarmoqlarini rivojlantirish, go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish hamda sohadaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishishi jarayonida muhim masalalar o'rta qo'yildi.

Avvalo, chorvachilik haqida so'z yuritganda, uning ahamiyatini faqat mol soni yoki ishlab chiqarish hajmi bilan o'lchab bo'lmaydi. Bu soha bozordagi narxlar barqarorligi, qishloq aholisining daromadi, yangi ish o'rinlari va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi bilan uzviy bog'liq. "Zanjirning mustahkamligi uning har bir bo'g'iniga bog'liq", deyishadi. Chorvachilikda ham natija ozuqa bazasi, naslchilik, veterinariya, texnologiya va mehnat samaradorligi kabi omillar uyg'unligiga qarab belgilanadi.

Mamlakatimizda go'shtga yillik talab 2 million 150 ming tonnani tashkil etayotgan bir paytda ishlab chiqarish hajmi 1 million 600 ming tonna atrofida qolmoqda. Shu bois, asosiy vazifa mahsulot hajmini oshirish bilan cheklanmaydi. Gap

zamonaviy texnologiyalarga tayangan, yuqori samarador va raqobatbardosh ishlab chiqarish tizimini shakllantirish haqida bormoqda. Chunki zamonaviy chorvachilikda ustunkil mol sonidan ko'ra har bir bosh chorvadan olinayotgan mahsulotlik, sifatli nasl, mustahkam ozuqa bazasi va ilg'or usullarni qay darajada joriy etish bilan belgilanadi.

Sohadagi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish ham muhim yo'nalishlardan biri. Faoliyati to'xtab qolgan 103 ta chorvachilik korxonasini qayta tiklash rejası bu boradagi muhim tashabbus bo'ldi. Aytaylik, chekka hududlardan birida yillarda davomida faoliyat ko'rsatgan, ammo moliyaviy qiyinchiliklar sabab ishlab chiqarishi to'xtagan chorvachilik majmuasi qayta ishga tushirilishi faqat bir korxonaning tiklanishigina emas, o'sha hududda yangi ish o'rinlari paydo bo'lishi, chorvadorlar uchun bozor shakllanishi, ozuqa yetishtirishdan tortib, qayta ishlashgacha bo'lgan butun zanjir harakatga kelishi demakdir.

Shu nuqtayi nazardan, korxonalarning qarzi yukini yengillashtirish, ularni o'n yillik muddat asosida to'lash imkoniyatini yaratish, ozuqa bazasi uchun yer ajratish va nasli chorva bilan ta'minlash bo'yicha takliflar oddiy moliyaviy yordamgina emas, ishlab chiqarish salohiyatini qayta tiklashga qaratilgan tizimli chora sifatida namoyon bo'ladi. Natijada 33 ming bosh qoramol parvarish qilinib, yiliga 12 ming tonna go'sht va 40 ming tonna sut ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Chorvachilik rivoji haqida gap ketganda, faqat yirik fermer xo'jaliklari yoki sanoat miqyosidagi loyihalar bilan cheklanib bo'lmaydi. O'zbekiston chorvachiligining katta

tayanchlaridan biri minglab xonadonlardagi mavjud imkoniyat va tajribadir. Chunki xonadonda boqilayotgan har bir bosh chorva nafaqat oila ehtiyoji, balki hudud iqtisodiy faolligining bir qismi hamdir.

Bugun 191 tumandagi chorvachilikka ixtisoslashgan 2407 mahallada mavjud 823 ming xonadonda 3,9 million aholi istiqomat qilayotgani sohaning ijtimoiy ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi. Bu mahallalarda chorvachilik ko'plab oilalar uchun qo'shimcha daromad manbai, mehnat va tadbirkorlik imkoniyati sifatida shakllangan.

Biroq xonadonlardagi mavjud salohiyatdan to'liq foydalanish uchun tizimli yondashuv zarur. Chorva parvarishida asosiy to'siqlardan biri sifatli nasl, arzon va barqaror ozuqa ta'minoti, veterinariya xizmatlari hamda mahsulotni bozorga chiqarish imkoniyatlarining yetarli emasligidir. Shu bois, xonadonlarga arzon chorva mollari yetkazib berish, sigirlarni sun'iy usullar asosida ko'paytirish, yem-xashak ta'minotini yaxshilash, zooveterinariya xizmatlarini rivojlantirish va nasli buzoqlarni hisobga olish tizimini yo'lga qo'yish muhim vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda.

Chekka hududlardagi oddiy bir xonadon misolida oladigan bo'lsak, mahsulot chorvaga bo'lish oila uchun nafaqat kundalik ehtiyojni ta'minlash, balki barqaror daromad manbaini yaratish imkonini beradi. Agar bunday imkoniyat minglab xonadonlarda kengaytirilsa,

bu hududlarda iqtisodiy faollikni oshiradigan muhim omilga aylanadi.

Soha rivojida xorijiy tajribadan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Rejalar asosida Mo'g'ulistondan 150 ming bosh qo'y, Xitoy va Yevropa davlatlaridan 100 ming bosh nasli qoramol, Belarusdan esa 2 ming bosh mol olib kelish ko'zda tutilmoqda. Ko'rilgan choralar orqali yiliga qo'shimcha 44 ming tonna go'sht ishlab chiqarish imkoniyati yaratilishi kutilmoqda.

Biroq har qanday tashqi tajriba mahalliy sharoitga moslashtirilgandagina samara beradi. Shuning uchun asosiy vazifa kengayayotgan imkoniyatlarni o'zlashtirish, ilg'or usullarni amaliyotga joriy etish va milliy chorvachilik salohiyatini oshirishdan iborat.

Ayni jarayonda raqamli texnologiyalarning o'rni tobora ortib bormoqda. Chunki katta hajmdagi ishlab chiqarishni aniq hisob-kitob va tahlillarsiz samarali boshqarish qiyin. Shu nuqtayi nazardan, fermerlar va aholi uchun joriy etilayotgan "Smart Farmer" raqamli yordamchisi sohada yangi imkoniyatlar ochishi mumkin.

Ushbu tizim orqali chorvani identifikatsiya qilish, veterinariya xizmatlaridan foydalanish, oziqlantirish va yaylovlarini boshqarish bo'yicha ma'lumot olish imkoniyati yaratiladi. Eng muhimi, raqamlashtirish sohada aniq hisob, shaffoflik va samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Chorvachilik bilan bir qatorda parrandachilik ham oziq-ovqat xavfsizligining muhim yo'nalishlaridan biri. Ushbu sohaning afzalligi shundaki, qisra vaqt ichida mahsulot hajmini oshirish imkoniyati mavjud. Ammo buning uchun faqat ishlab chiqarishni ko'paytirish emas, balki ozuqa bazasi, qayta ishlash va saqlash tizimlarini ham rivojlantirish talab etiladi.

Shu maqsadda parrandachilik sohasida umumiy qiymati 432 million dollar bo'lgan loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda. Ular orqali 2028-yilga qadar qo'shimcha 100 ming tonna parranda go'shti ishlab chiqarish, ozuqa ishlab chiqarish quvvatlarini 3,3 million tonnaga yetkazish va zamonaviy so'yish tizimi qamrovini kengaytirish maqsad qilinagan.

Sohaning barqaror rivoji esa butun zanjirning bir maromda ishlashiga bog'liq. Naslchilik, ozuqa ta'minoti, veterinariya, qayta ishlash va sotuv tizimi o'zaro uyg'un bo'lsagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu bois, O'zbekiston chorvadorlar uyushmasini tashkil etish tashabbusi ham muhim qadamdır. Chunki uyushgan tizim fermer va tadbirkorlarning manfaatlarini himoyalash, ilmiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash va tarmoqdagi muammolarni tizimli hal etish imkonini beradi.

Aslida, chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirishdan ko'zlangan maqsad faqat go'sht va sut ishlab chiqarishni ko'paytirish emas. Bu qishloq aholisi uchun barqaror daromad manbalarini yaratish, ichki bozorni mustahkamlash va iqtisodiyotda yangi qiymat zanjirlarini shakllantirish vazifasidir. Fermer o'z mehnatidan manfaat ko'rsa, xonadon egasi chorvachilikni daromad manbasiga aylantirsa, iste'molchi sifatli mahsulot bilan ta'minlansagina sohadagi o'zgarishlarning mazmunini namoyon bo'ladi.

Shu ma'noda, chorvachilik va parrandachilik sohasida qilinayotgan ishlar bugungi ehtiyojga javob berish bilan birga mamlakatning kelajak oziq-ovqat barqarorligi uchun mustahkam asos yaratmoqda. Zero, dasturxon to'kinligi ortida minglab insonlar mehnati, samarali iqtisodiy tizim va oqilona davlat siyosati uyg'unligi turadi.

Sardor TOLLIBOYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



ILM-FAN

chegaralarni TAN OLMAYDI



Karsten DREBENSHTEDT, Frayberg texnika universiteti konchilik akademiyasi professori (Germaniya):

— Ba'zan insonning hayot yo'li xaritada bir-biridan minglab kilometr uzoqda joylashgan ikki go'sha bilan chambarchas bog'lanadi. Men uchun Germaniyaning qadimiy Frayberg shahri va O'zbekistonning bepoyon Qizilqum hududi ana shunday ikki qadrdon maskandir. Bu olis manzillarni konchilik sohasi va faol ilmiy hamkorlik an'analari bog'lab turibdi.

O'zbekiston bilan tanishuvim o'tgan asrning 80-yillariga borib taqaladi. Ilk bor 1980-yilda talaba sifatida Angren shahrida amaliy mashg'ulotlarda bo'lganman. O'sha safar menda nafaqat konchilik ishlab chiqarishi, balki o'zbekistonlik mutaxassislarning kasbiga sadoqati va mehmondo'stligi katta taassurot qoldirgan edi. Oradan yillar o'tib, 2002-yilda professor hamda

O'zbekiston bilan tanishuvim o'tgan asrning 80-yillariga borib taqaladi. Ilk bor 1980-yilda talaba sifatida Angren shahrida amaliy mashg'ulotlarda bo'lganman. O'sha safar menda nafaqat konchilik ishlab chiqarishi, balki o'zbekistonlik mutaxassislarning kasbiga sadoqati va mehmondo'stligi katta taassurot qoldirgan edi.



Boshlanishi 1-betda

Bu jarayon xalqaro hamkorlik uchun mutlaqo yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Xususan, qo'shma ta'lim dasturlari, akademik mobillik, ikki diplomli dasturlar, professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvi, ilmiy konsorsiumlar hamda innovatsion loyihalar ko'payib borayotgani yurtimizning global ta'lim makonidagi o'rni tobora mustahkamlanayotganidan dalolat. Buni xalqaro ekspertlarning berayotgan yuqori bahosi, bildirilayotgan xolis va haqqoniy fikrlardan ham anglab olish qiyin emas.

Fraybergdan Qizilqumgacha: ikki yurtni bog'lagan ma'rifat yo'li

Germaniya tomoni vakili sifatida Navoiy kon-metallurgiya kombinati bilan hamkorlikda fosforit rudalarini qazib olish loyihasida ishtirok etish nasib etdi.

O'sha davrdan boshlangan ilmiy va amaliy hamkorlik bugungi kungacha izchil davom etib kelmoqda. 2024-yil aprel oyida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda qatnashish men uchun yana bir unutilmas voqea bo'ldi. Mazkur davrdan e'tiboran har yili muntazam O'zbekistonga borib turibman. Qizilqum mintaqasi va Zarafshon vohasi bilan yaqindan tanishish xorijlik olim sifatida ushbu hudud sanoati va infratuzilmasi yil sayin zamonaviy qiyofa kasb etayotganini mamnuniyat bilan kuzatmoqdaman.

Men faoliyat yuritayotgan Frayberg texnika universiteti konchilik akademiyasi dunyodagi shu sohadagi ilk tog'-kon oliy dargohlardan biri bo'lib, geologiya, metallurgiya, materialshunoslik, energetika va barqaror resurslardan foydalanish borasida xalqaro miqyosda yuksak obro' qozongan. Frayberg shahri esa asrlar davomida Yevropa konchilik ilm-fani va muhandislik maktabi beshigi sanaladi.

Bugungi kunda Frayberg texnika universiteti konchilik akademiyasi va Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti o'rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa, 2025-yildan yo'lga qo'yilgan "Foydali qazilma konlarini qazish" yo'nalishi bo'yicha qo'shma magistratura dasturi xalqaro ta'lim integratsiyasining yorqin namunasi hisoblanadi. Ushbu dastur orqali talabalar Germaniya va O'zbekistonda tahsil olib, o'quv jarayonini muvaffaqiyatli yakunlagach, bir vaqtning o'zida ikki davlatning oliy ta'lim diplomini qo'lga kiritmoqda. Bu esa yosh mutaxassislarga xalqaro mehnat bozorida keng imkoniyatlar yaratish bilan birga ikki mamlakat ilmiy maktablarini yanada yaqinlashtiryapti.

Qolaversa, 2023-2026-yillarda hamkorlikda amalga oshirilgan xalqaro grant, ya'ni Yevropa Komissiyasining "Erasmus+" ("Oliy ta'limda salohiyatni oshirish") dasturi tomonidan moliyalashtirilgan "Eko-kon va tabiiy resurslarni innovatsion boshqarish" loyihasi ham universitetlar o'rtasidagi akademik hamkorlikda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ilm-fan chegaralarni tan olmaydi: universitetlar xalqlarni yaqinlashtiradigan, yangi g'oyalarni birlashtiradigan va kelajak uchun mustahkam poydevor yaratadigan maskanlardir. Shu ma'noda, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti ham Markaziy Osiyoda tog'-kon ta'limida yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlaridan biriga aylanib ulguraganini alohida ta'kidlashni istardim.

Ishonchim komilki, Frayberg va Navoiy o'rtasidagi ilmiy ko'priklarga kelgusi yillarda yanada mustahkamlanadi. Bu hamkorlik yangi ilmiy ishlanmalar va innovatsiyalarni yuzaga chiqarish bilan birga ikki xalq o'rtasidagi do'stlik va o'zaro ishonchni ham yangi bosqichga olib chiqadi. Ilm-fan, innovatsiyalar va xalqaro hamkorlikni ustuvor yo'nalish sifatida davom ettirayotgan yangi O'zbekiston, shubhasiz, ulkan marralarni zabt etadi.

Fraybergdan Qizilqumgacha cho'zilgan mazkur ilm yo'li, nazariyda, oddiy hamkorlik emas. Bu xalqlarni, avvalo, ilm, ishonch va ezuq maqsadlar birlashtirishini tasdiqlovchi yorqin timsoldir. Ana shu yo'l kelajak avlodlar uchun ham mustahkam, barqaror va ilhom baxsh etuvchi ko'priklarni qolishiga chind dalolat ishonamun.

Yanis KUDINISH, Daugavpils universiteti rivojlanish bo'yicha prorektori (Latviya):

— Men faoliyat yuritayotgan universitet uchun O'zbekiston bilan hamkorlik ustuvor yo'nalishlardan biri. Biz mamlakatingizda ta'lim sohasida yaratilayotgan qulay muhit, davlat tomonidan xorijiy hamkorlarga bildirilayotgan ochiq munosabat va innovatsiyalarga intilishni yuqori baholaymiz. Bu omillar o'zaro manfaatli sheriklikni yanada rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Zamonaviy dunyoda universitetlar nafaqat ta'lim beruvchi muassasa, balki innovatsiyalar, ilmiy tadqiqotlar va iqtisodiy taraqqiyot drayveri sanaladi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda inson kapitaliga qaratilayotgan e'tibor, yoshlarning ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlash va ta'lim hamda ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan siyosat xalqaro akademik doiralarda ijobiy baholanmoqda.

Xususan, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, muhandislik, tibbiyot, biotexnologiya, "yashil iqtisodiyot" va barqaror rivojlanish kabi ustuvor sohalarda xalqaro hamkorlikni kengaytirish uchun katta salohiyat mavjud. Universitetlar o'rtasida qo'shma laboratoriyalar tashkil etish, ilmiy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va yosh tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash kelajakda yuqori natijalarga xizmat qiladi.

Biz O'zbekiston universitetlari bilan uzoq muddatli hamkorlik munosabatlari rivojlantirishdan manfaatdorimiz. Bu hamkorlik faqat ta'lim bilan cheklanib qolmasdan,



Kamolot pillapoyasi

Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi arafasida erishgan yutuqlarimiz, natijalarimiz haqida so'z borsa, birinchi navbatda, bilimga, ilm-fanga va innovatsiyaga tayanayotgan yangi avlodning shakllanayotganini mamnuniyat bilan qayd etgan bo'ldirdim.

Bu jarayon esa, eng avvalo, bevosita davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasining ustuvor maqsadlari — inson kapitalini rivojlantirish, sifati ta'limni ta'minlash, ilm-fan va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, yoshlarning zamonaviy bilim va kasblarni egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratish bilan chambarchas bog'liq.

Ayniqsa, oliy ta'limni rivojlantirish, universitetlarni ilm-fan va ishlab chiqarish bilan yanada yaqinlashtirish, yoshlarni zamonaviy texnologiyalar va innovatsion faoliyatga keng jalb etish borasidagi islohotlar "Yangi O'zbekiston — yangi imkoniyatlar" tamoyilining amaliy ifodasiga aylangan.

Ana shu bunyodkorlik jarayonining hududlardagi muhim ilmiy-ta'limiy tayanchlaridan biri sifatida Buxoro davlat texnika universitetini alohida qayd etish mumkin. Bugun universitetda 15 mingdan ortiq talaba, 680 nafardan ziyod professor-o'qituvchi faoliyat yuritib, 4 ta fakultet, 24 ta kafedra va 14 ta markaz orqali zamonaviy muhandislik, texnologiya, tabiiy resurslarni boshqarish, xizmat ko'rsatish, raqamlashtirish va boshqa istiqbolli yo'nalishlarda mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Bugun ushbu dargohda amalga oshirilayotgan har bir tashabbusni mamlakatimizda kechayotgan keng ko'lami islohotlarning uzviy davomi sifatida baholash o'rinni.



SIFATLI TA'LIM VA INNOVATSIYALAR BILAN BUNYOD ETILAYOTGAN KELAJAK

real hayotga kirib borishi, texnologiyaga, mahsulotga va iqtisodiy imkoniyatga aylanishida bo'y ko'rsatishi lozim. Shu maqsadga mavjud ilmiy ishlanmalarini tijoratlashtirishning samarali mexanizmi sifatida 8 ta "spin-off" korxona tashkil etildi. Ya'ni universitetda yaratilgan bilim va texnologiya endi faqat laboratoriya yoki ilmiy ish doirasida qolmay, bozor talabiga javob beradigan mahsulot va xizmatga aylanish yo'lga chiqmoqda.

Muhimi, bu jarayon kelajak uchun yangi imkoniyatlar eishigini ochmoqda. Universitet tomonidan yana 15 ta shunday turdagi korxona tashkil etish rejalashtirilgan. Ular orasida vodorod gaz texnologiyalar, dronlar ishlab chiqarish hamda Buxoro turizm sohasi uchun "halol turizm" standartlari bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari kabi istiqbolli yo'nalishlar mavjud.

Shuningdek, innovatsiyalar sohasiga ham alohida o'rinni ajratilayapti. Universitetda ilmiy salohiyatni aynan shu mezon asosida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ilmiy salohiyatni hudud taraqqiyotiga yo'naltirish dolzarb vazifalardan. Bugungi kunga qadar universitet olimlari tomonidan 100 dan ortiq ixtiro yaratilgan bo'lib, ularning 40 ga yaqini Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, jarayonni yanada tizimli tashkil etish maqsadida universitetda 1200 dan ortiq muammoni qamrab olgan "Muammolar banki" shakllantirilgan. Undagi real muammolar magistr va doktorantlarning ilmiy izlanishlari uchun mavzu sifatida belgilab olinib, ilmiy tadqiqotni amaliy ehtiyoj bilan bog'lash imkonini bermoqda.

Globallashev davriga kelib, universitetlarning xalqaro maydondagi o'rni ularning nechta xorijiy hamkorga ega ekanini bilangina emas, ushbu hamkorliklar ta'lim, ilm-fan va talabalar kelajagiga qanday real imkoniyatlar yaratayotgani bilan belgilanadi. Buxoro davlat texnika universiteti uchun xalqaro hamkorlik ham aynan shunday mazmunga ega. Ya'ni bu ilg'or bilim va zamonaviy texnologiyalarni hududga olib kirish, mahalliy ilmiy salohiyatni jahon ilm-fani bilan bog'lash hamda talabalarni global ta'lim makoniga olib chiqish imkoniyatidir.

Bugungi kunda universitetning ilmiy-ta'limiy hamkorlik geografyasi Malayziya, Germaniya, Rossiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Bolgariya, Qozog'iston, Ukraina, Rumiya, Indoneziya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Italiya, Vengriya, Belgiya, Latviya va Belarus kabi davlatlarni qamrab olgan. Ular qo'shma ilmiy tadqiqotlar, akademik almashinuvi, professor-o'qituvchilar va talabalar uchun xalqaro tajriba, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish hamda yosh olimlar uchun yangi ilmiy imkoniyatlardan iborat.

Universitetda xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda 40 dan ortiq yo'nalishda qo'shma ta'lim dasturlari yo'lga qo'yilgan. Jumladan, "2+2" dasturlari doirasida talabalar

Sadoqat SIDDIQOVA, Buxoro davlat texnika universiteti rektori

Universitetimiz olimlarning ilmiy izlanishlari natijasida bugungi kunga qadar 86 ta patent qo'lga kiritildi. Bu esa ilmiy g'oyaning

banki" shakllantirilgan. Undagi real muammolar magistr va doktorantlarning ilmiy izlanishlari uchun mavzu sifatida belgilab olinib, ilmiy tadqiqotni amaliy ehtiyoj bilan bog'lash imkonini bermoqda.

Globallashev davriga kelib, universitetlarning xalqaro maydondagi o'rni ularning nechta xorijiy hamkorga ega ekanini bilangina emas, ushbu hamkorliklar ta'lim, ilm-fan va talabalar kelajagiga qanday real imkoniyatlar yaratayotgani bilan belgilanadi. Buxoro davlat texnika universiteti uchun xalqaro hamkorlik ham aynan shunday mazmunga ega. Ya'ni bu ilg'or bilim va zamonaviy texnologiyalarni hududga olib kirish, mahalliy ilmiy salohiyatni jahon ilm-fani bilan bog'lash hamda talabalarni global ta'lim makoniga olib chiqish imkoniyatidir.

Bugungi kunda universitetning ilmiy-ta'limiy hamkorlik geografyasi Malayziya, Germaniya, Rossiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Bolgariya, Qozog'iston, Ukraina, Rumiya, Indoneziya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Italiya, Vengriya, Belgiya, Latviya va Belarus kabi davlatlarni qamrab olgan. Ular qo'shma ilmiy tadqiqotlar, akademik almashinuvi, professor-o'qituvchilar va talabalar uchun xalqaro tajriba, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish hamda yosh olimlar uchun yangi ilmiy imkoniyatlardan iborat.

Universitetda xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda 40 dan ortiq yo'nalishda qo'shma ta'lim dasturlari yo'lga qo'yilgan. Jumladan, "2+2" dasturlari doirasida talabalar



Eng katta imkoniyatni yoshlarda ko'raman

fundamental va amaliy tadqiqotlar, innovatsion startaplar, sanoat bilan integratsiya hamda akademik diplomatiyani ham qamrab olishi lozim.

O'zbekiston geografik joylashuvi nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega. Mamlakat Sharq va G'arb, Janubiy Osiyo va Yevroosiyo, islom madaniyati va dunyoviy ilm an'analari kesishgan hududda joylashgan. O'zbekistondagi universitetlar bu geografik ustunlikni akademik ko'priklarga aylantirishga ishonamiz. Yevropalik talaba uchun O'zbekiston, shuningdek, Markaziy Osiyoni o'rganish, sharqshunoslik, arxeologiya,

almashinuvi tizimli yo'lga qo'yilgan, birgalikda xalqaro ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi ishtiroki tobora kengayib bormoqda. QS va Times Higher Education reytinglarida mahalliy universitetlar soni ko'payib, ayrim fan yo'nalishlarida sezilarli natijalar qayd etilmoqda. 2026-yilgi QS fanlar reytingida O'zbekistonning yettita oliy ta'lim muassasasi o'n ikki fan yo'nalishi bo'yicha o'n beshta pozitsiya oldi. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining matematika, fizika va astronomiya, arxeologiya, lingvistika sohaslaridagi yutuqlari, ayniqsa, ayrim yo'nalishlardagi o'sish, mamlakatda tarixiy ilmiy maktablarni xalqaro maydonga olib chiqish imkoni borligini ko'rsatadi.

Barqaror rivojlanish reytinglarida O'zbekiston universitetlarining keng ishtirok etayotgani ham muhim. 2026-yilda o'nlab oliygo'harlar QES Sustainability Impact baholashida qatnashib, ularning katta qismi dunyoning mingtaligiga kirdi.

Bugungi kunda Yevropa va O'zbekiston universitetlari o'rtasidagi hamkorlik uchun katta imkoniyatlar mavjud. Iqlim o'zgarishi, suv resurslari, bioxilma-xillik, qayta tiklanuvchi energiya, arxeologik meros, migratsiya, raqamli gumanitar fanlar, sun'iy intellekt va ta'lim texnologiyalari kabi sohalar ikki tomon uchun ham dolzarb sanaladi.

Latviya va boshqa Boltiq davlatlari raqamli boshqaruv, kichik va ochiq iqtisodiyot, ko'p tilli ta'lim va Yevropa tadqiqot dasturlarida ishtirok bo'yicha tajriba taklif qila oladi. O'zbekiston esa ko'p sonli yoshlar salohiyati, boy ilmiy maktablar va mintaqaviy tadqiqot maydonini taqdim etadi.

Ishonchim komilki, o'zaro hurmat, ishonch va umumiy maqsadlarga asoslangan hamkorligimiz kelgusida yanada mustahkamlanib, ilm-fan, innovatsiyalar va inson kapitali rivojiga munosib hissa qo'shadi. Yangi O'zbekiston bilan birgalikda bilim va taraqqiyotning yangi sahifalarini yaratish barchamiz uchun sharaf.



iqlim, suv resurslari va mintaqaviy iqtisodiyot bo'yicha tabiiy laboratoriya vazifasini bajarsa, o'zbekistonlik talaba uchun Yevropa universitetlari ilmiy metodologiya, akademik boshqaruv va xalqaro tarmoqlarga chiqish imkonini beradi.

Bu yo'nalishda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida shakllangan hamkorlik amaliyoti diqqatga sazovor. Universitet bizning Daugavpils universiteti bilan bir necha yillardan beri faol hamkorlik qilib kelyapti. Talabalar va professor o'qituvchilarning akademik

“Yangi O'zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA yozib oldi.

orqali yanada moslashuvchan va ochiq tizimga aylantirishga xizmat qilyapti.

Zamonaviy universitetning vazifasi faqat xalqaro hamkorlar sonini oshirish yoki xorijiy ta'lim dasturlarini joriy etish bilangina cheklanmaydi, albatta. Ta'lim, ilm-fan, ishlab chiqarish va tadbirkorlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash ham muhim. Auditoriyada olingan bilim ishlab chiqarish jarayonida sinovdan o'tganida, laboratoriyadagi ilmiy g'oya real muammoga yechim berganida va innovatsion ishlanma amaliy loyihaga aylanganidagina uning haqiqiy qiymati namoyon bo'ladi.

Aytmoqchimizki, xalqaro hamkorlikning asl qiymati inson kapitalida mujassam. Shu bois, Buxoro davlat texnika universitetida dual ta'lim, ilmiy laboratoriyalar, texnopark, innovatsion loyihalar va tadbirkorlik yo'nalishlarni o'zaro bog'lashga qaratilgan tizim shakllantirilmoqda. Talaba nazariy bilimni korxonada mustahkamlaydi, tadqiqotchi o'z g'oyasini laboratoriyada sinovdan o'tkazadi, innovator esa uni amaliy loyiha va biznes tashabbusiga aylantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada universitet va ishlab chiqarish o'rtasidagi masofa qisqarmoqda.

Ris emaski, yurtimizda inklyuziv muhitni rivojlantirish, xotin-qizlar va yoshlarning ta'lim olishi, zamonaviy kasblarni egallashi va o'z salohiyatini namoyon etishi uchun teng sharoitlar yaratish muhim yo'nalishlardan biridir.

Mazkur jarayonning amaliy ifodasini universitetimizning "Xotin-qizlar va yoshlar uchun AT va muhandislik inklyuziv ta'lim markazi" faoliyatida ham kuzatish mumkin. Markazda 20 dan ortiq zamonaviy kasb-hunar va AT yo'nalishlari bo'yicha to'garaklar faoliyat yuritadi. Bugungi kunda ular 200 dan ziyod talaba va mahalla yoshlari bilim va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Bu yerda yoshlar faqat kompyuter yoki texnologiyani o'rganmaydi. Ular o'ziga ishonch, mustaqil fikrlash, kasbiy ko'nikma va kelajak uchun aniq yo'nalish topmoqda. Natija esa e'tiborga molik: bugungacha qadar 80 nafar tizimlovchi o'quvlarini muvaffaqiyatli tamomlab, tegishli sertifikatlarga ega bo'ldi.

Buxoro davlat texnika universitetida aynan shu maqsadga xizmat qiluvchi muhit qaror topgan. Zamonaviy ta'lim, ilmiy tadqiqotlar, xalqaro hamkorlik, innovatsion loyihalar, ishlab chiqarish bilan integratsiya va tadbirkorlik imkoniyatlari yoshlarni bilim oluvchidan — bilim yaratuvchiga, g'oya egasidan — innovatorga, talabadan — bunyodkorga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Zero, universitetda yaratilayotgan imkoniyatlar faqat bugungi kun uchun emas. Ularining haqiqiy samarasi yillar o'tib, yangi korxonalar, yangi texnologiyalar, ish o'rnlari, ilmiy kashfiyotlar va talabalarimizning har tomonlama yetuk kadrlar sifatida mamlakatimiz taraqqiyotiga qo'shadigan hissasida namoyon bo'lishiga ishonchimiz komil.



Feruz MUHIDDINOVA, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zosi

"Ma'rifat" targ'ibotchilari safida ushbu tadbirlarda ishtirok etar ekanmiz, Surxon elining mehmondo'stligiga, shuningdek, yurtdoshlarimiz qalbidagi Vatanga sadoqat va daxldorlik tuyg'usiga bevosita guvoh bo'ldik. Har bir uchrashuv, har bir suhbat bu diyor odamlarining ruhi naqadar baqquvat ekanini yana bir bor ko'rsatdi.

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 1-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash doirasida tashkil etilgan festival may-sentyabr oylari davomida 208 ta tuman va shahar markazlarida, "Yangi O'zbekiston" massivlarida hamda 8902 ta mahallada davom etmoqda. Surxondaryo viloyatida esa festival tadbirlari 5-7-avgust kunlari o'tkazildi.

Tarixni buyuk insonlar yaratadi. Kelajakni esa ularning izidan boradigan yoshlar barpo etadi. "Millat fidoyilari" loyihasi ana shunday insonlarning hayot yo'li, mehnati va Vatan ravnaqi yo'lidagi xizmatlarini yosh avlodga yetkazishni maqsad qilgan.



Tadbirlar "Mustaqillik marafoni" bilan boshlandi. Bu yurish masofani emas, balki maqsad birligini ko'rsatadi. Sariosiyo tumanidagi aeroportdan to Alisher Navoiy nomidagi mahalla fuqarolar yig'ini arkasiga qadar davom etgan tantanali yurishda ziyolilar, harbiylar, yoshlar, sportchilar va mahalla faollari ishtirok etdi.

Bugungi yoshlar internet orqali dunyoni ko'rmoqda. Ammo Vatanni himoya qilish mas'uliyatini faqat hayotning o'zi o'rgata oladi. Shu bois, festival dasturidan o'rin olgan "Shijoat" loyihasi Sariosiyo va Denov tumanlaridagi harbiy qismlarda tashkil etildi hamda unda harbiy xizmatchilar va oila a'zolari faol ishtirok etdi.

Tarixni buyuk insonlar yaratadi. Kelajakni esa ularning izidan boradigan yoshlar barpo etadi. "Millat fidoyilari" loyihasi ana shunday insonlarning hayot yo'li, mehnati va Vatan ravnaqi yo'lidagi xizmatlarini yosh avlodga yetkazishni maqsad qilgan. Loyiha doirasida festival ishtirokchilari Uzun tumanida ko'p yillar ta'lim sohasida fidokorona mehnat qilgan ustozlar holidan xabar oldi. Oqsoqollar yosh avlodga oq fотиha berib, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, farzandlarimiz ilmi va vatanparvar bo'lib kamol topishini tilab, duo qildi.



loyihasi o'g'il-qizlarga dam olish bilan birga ilhom, quvunch va ijodga rag'bat ulashdi.

Sun'iy intellekt asrida bilimga ehtiyoj yanada ortmoqda. Axborotni internet beradi, ammo tafakkurni kitob shakllantiradi. Ma'naviyat targ'ibotchilari Sariosiyo tumanidagi Luttkor mahallasida joylashgan kutubxona faoliyati bilan tanishdi. Bu maskanda kechgan muloqotlarda kitobning inson hayotidagi o'rni, ilm va ma'rifatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati asosiy mavzu bo'ldi. "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zosi Shahlo Ahrorova kitob inson ma'naviyatining tayanchi, yoshlarni mutolaaga undash bugunning eng muhim vazifalaridan ekanini haqida so'z yuritdi.

Ziyoratgohlar nafaqat tarixiy va muqaddas xotira, balki inson qalбини ezigulik, ma'naviy yuksalish hamda chuqur tafakkurga

yetaklaydigan tarbiya maskanidir. Festival doirasidagi o'ziga xos "Ziyorat odobi" loyihasi tabarruk maskanlarning ozodaligiga hissa qo'shish, ziyoratgoh muhiti va boshqa ziyoratchilar bilan madaniy munosabatda bo'lish har bir fuqaroning ma'naviy mas'uliyati ekanini eslatadi. Loyiha doirasida targ'ibotchilar avval Sariosiyo tumanidagi "Dehqalander" qabristonida, so'ng Sherobod tumanidagi Imom Abu Iso Muhammad Termiziy ziyoratgohida bo'ldi. Ishtirokchilarga "Ziyorat odobi" nomli maxsus qo'llanma tarqatildi. Shuningdek, "Ma'rifat tur" loyihasi doirasida diqqatga sazovor maskanlarga sayohatlar uyushtirildi.

Obod va ahil mahalla farovon jamiyatning mustahkam poydevori. U — mehr-oqibat, o'zaro hurmat, birdamlik va hamjihatlik qaror topadigan hayot maktabidir. Shu bois,

"EtnoSurxon" folklor va milliy o'yinlar festivali vohadagi tadbirlarning ko'tarinki namoyishi bo'ldi. Boysun tumanidagi Bibishirin mahallasida joylashgan "Boysun bahori" turizm majmuasi amfiteatrida viloyatning 15 tumani va shahridan kelgan folklor-etnografik dastalarning chiqishi, baxshichilik san'ati tanlovi hamda milliy xalq o'yinlari tashkil qilindi. Ushbu tadbir Surxonning chinakam ruhiyatini namoyon etdi. Kechki galakonsert ham "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" shiori ostida mazkur majmuada davom etdi.

Uchinchi kuni Termiz shahrida "Mahalla — ma'naviy makon" mavzusida seminar-trening bo'lib o'tdi. Angor tumanida esa "Yaxshilik karvoni" loyihasi doirasida keksalar, nuroniylar va ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar holidan xabar olindi.

Festivalning "Shukronalik" loyihasi insoniy qadriyatlar va mehr-oqibatning yorqin ifodasiga aylandi. Loyiha doirasida bir guruh san'at namoyandalari Angor tumanining Tallimaron mahallasida istiqomat qiluvchi, muborak 101 yoshni qarshilagan Marziya momo Hamroyeva xonadonida bo'ldi. Onaxonning holidan xabar olindi. U bilan samimiy suhbat qilindi. Vatan va tinchlikni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar ijro etilib, momoga esdalik sovg'alari topshirildi. Mazkur tashrif nuroniylarga ehtirom ko'rsatish, ularning jamiyatdagi munosib o'rni va xizmatlarini e'tirof etish, xalqimizning mehr-oqibat hamda shukronalik qadriyatlarini keng targ'ib etishga xizmat qildi.

O'nlab olis manzillar, o'ndan ortiq ijtimoiy loyihalar, minglab ishtirokchilar... Bularning barchasini birlashtirib turgan yagona g'oya bor: "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!". Mustaqillik — faqat bir kun nishonlanadigan sana emas. U har kuni mehnat, birdamlik, ma'rifat va vatanparvarlik bilan mustahkamlanadigan bebaho qadriyatdir. Surxondaryoda bo'lib o'tgan "Mustaqillik to'yi" festivali ana shu haqiqatni yana bir bor namoyon etdi.

Dildagi gaplar

"Mustaqillik" so'zi zamirida ozodlik, milliy g'urur, muqaddas Vatan, tinchlik va xalqning baxtli kelajagi mujassam. Joriy yilda mamlakatimiz istiqlolning 35 yilligini yuksak shukuh, cheksiz ixtixor va katta yutuqlar bilan qarshi olmoqda. Bu tarixiy sana har bir yurtdoshimiz qalbidagi Vatanga muhabbat, istiqloлга sadoqat va ertangi kunga ishonch tuyg'ularini mustahkamlaydi.

Har qanday davlatning qudrati, avvalo, fuqarolaridagi vatanparvarlik tuyg'usi bilan o'chanadi. Yurtini sevgan inson uning tinchligi uchun mehnat qiladi, ravnaqi uchun kurashadi, xalq manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yadi. Shuning uchun ham vatanparvarlik har qanday boylikdan ustun turadigan ma'naviy fazilatdir.

VATANPARVARLIK — YUKSAK BURCH



Abduhamid ALLAYAROV, Ichki ishlar vazirligi qorovul qo'shinlari harbiy xizmatchisi

Bugun yangi O'zbekiston taraqqiyotining har bir bosqichida inson qadri, qonun ustuvorligi, milliy manfaat va davlat xavfsizligini ta'minlash

asosiy vazifa sifatida belgilanmoqda. Bu yo'lda harbiy xizmatchilar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, chegarachilar va xalqimiz birlashib, xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari Xavfsizlik kengashining mamlakatimiz harbiy xavfsizligi va mudofaasini yanada mustahkamlashga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishida bugungi murakkab geosiyosiy sharoitda milliy xavfsizlikni ta'minlash, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini yuksaltirish hamda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri ekanini alohida ta'kidladi. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish, milliy qadriyatlarga sadoqat va Vatanga muhabbat tuyg'usini yoshlar qalbiga singdirish mamlakat xavfsizligi hamda barqaror taraqqiyotining muhim omili ekanini qayd etildi. Bu ezu g'oyalar har birimizni Vatan oldidagi muqaddas burchni sidqidildan ado etishga undaydi.

Bugun dunyo axborot maydonida keskin raqobat kechmoqda. Turli



yot g'oyalar yoshlar ongiga ta'sir o'tkazishga intilayotgan bir sharoitda o'g'il-qizlarni mustaqil fikrlaydigan, ma'naviy immuniteti kuchli, Vatan taqdiriga befarq bo'lmagan shaxs etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb. Mazkur vazifani bajarishda

oila, mahalla, ta'lim muassasalari va harbiy jamoalarning hamjihatligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Harbiy xizmat — shunchaki yumush emas. Bu Vatan oldidagi muqaddas qasamyodga sodiq qolish, xalq ishonchini oqlash va yurt tinchligi uchun doim shay

turish deganidir. Harbiyga eng katta mukofot xalqning ishonchi, Vatanning osoyishtaligi va musaffo osmonidir.

Mustaqillikning 35 yillik taraqqiyot yo'li yurt tinchligi osonlik bilan qo'lga kiritilmasligini isbotladi. Uni asrash uchun yuksak mas'uliyat, temir intizom, fidoyilik va Vatanga cheksiz muhabbat talab etiladi. Ana shu fazilatlar har bir harbiy xizmatchining hayotiy mezoniga aylanishi lozim.

Bugun mamlakatimizda harbiy sohadagi islohotlar, zamonaviy harbiy ta'lim, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan keng qamrovli ishlar kelajagimiz uchun mustahkam poydevor bo'lmoqda. Chunki Vatan taqdiriga daxldorlik hissi kuchli bo'lgan yoshlar bor joyda mamlakat xavfsizligi ham, taraqqiyoti ham barqaror bo'ladi.

Mustaqillik bayrami har birimizga yana bir haqiqatni eslatadi: Vatanni sevis — uning ravnaqi uchun halol mehnat qilish, qonunlariga hurmat bilan qarash, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va yosh avlodga shu tuyg'uni meros qilib qoldirishdir.

Bugun qo'limizdagi eng buyuk boylik — tinchlik. Uni asrash esa barchamizning umumiy burchimiz. Zero, Vatanga muhabbat qalbdan boshlanadi. Sadoqat va amal bilan isbotlanadi.